

Bu voqealarga bir qiz sabab bo'ldi. Qizning ismi Muqaddas edi... Men u bilan birinchi marta institutda, kirish imtihonlari bo'yicha ximiyadan o'tkazilayotgan so'nggi konsulKjtatsiya paytida tanishdim, yo'q, tanishdim desam noto'g'ri bo'lardi, shunchaki ikki og'izgina gaplashish baxtiga muyassar bo'ldim...

O'sha voqeadan bir kun oldin men zavoddan otuskaga chiqqandim. Otuskam imtihon paytiga to'g'ri kelishini bilgan oyim bilan o'gay otam: "Institutga imtihon topshirib ko'r, kira olsang, yaxshi, kira olmasang sendan nima ketadi?" deb anchadan beri qistab yurishardi. Men imtihon topshirib toleimni sinab ko'rishga qarshi bo'lmasam ham: "Bu gap zavoddagi do'stlarimning qulog'iga chalinsa: "Bir yil ishlamasdan tuyog'ini shiqillatib qoldi-ya deb kulishmasmikin?" degan andishalarga borib, ikkilanib yurardim. O'sha kuni nonushta vaqtida bu gap yana qo'zg'aldi-yu, rozilik bermay ilojim qolmadi. Lekin qiziq: shu ishga o'zim rozilik bergan bo'lsam ham, uydan chiqqanimdan keyin: "Ishdan qochdi, degan gapga qolmasmikanman?" degan o'ylar yana esimga tushib, ko'nglimni g'ash qildi, shuning uchun ham qabul komissiyasiga kirmasdan avval, bu yog'ini ham bir ko'rib qo'yay, degan fikr bilan konsulKjtatsiya o'tkazilayotgan auditoriyaga kirdim.

Men kirganda derazalari hovliga qaragan uzun, yarim qorong'i auditoriya qiz-yigitlarga liq to'lgan edi. Qop-qora yaltiroq sochlarini silliq qilib tarab olgan o'rta bo'yli yoshgina domla qo'lidagi bo'r bilan doskani taq-taq urib, uni tushunish mushkul bo'lgan murakkab formulalarga to'ldirmoqda edi.

Baxtinga eshikdan kirgan joyda, yarim ochiq turgan katta derazaning tagida o'rindig'i o'pirilib tushgan bo'sh stul, uning yonida kimdir turtib qulatib ketgan uzun pachoq skameyka yotardi.

Men domla ko'rib qolmasin uchun tez borib skameykani turg'izib qo'ydim-da, chetiga o'tira qoldim.

Auditoriya dim, issiq va allaqanday yoqimsiz ter hidiga to'la edi. Domlani "sinkum", "vodorod", "valentlik", "sulKjfat kislotasi" kabi kimyoviy terminlarga to'lib-toshgan leksiyasi quloqqa kirmas, bir me'yordagi gaplardan mudroq bosardi kishini. Atrofimdagi qiz-yigitlarning qisilgan ko'zlaridan ular ham domlani leksiyasiga zor bo'lganlaridan emas, balki imtihon oldidan ko'ngillarini tinchitish uchungina kelib o'tirganlarini payqadim. Biroq kirib qolgandan keyin darrov indamay chiqib ketish odobdan bo'lmaydi,- degan andishaga borib, men ham o'tirib qoldim.

Leksiyaga bir nafas quloq solib o'tirdim, so'ngra gap oddiy kimyoviy reaksiyalar ustida ketayotganini tushundim-da, undan battar zerikib, derazadan tashqariga qaray boshladim.

Derazadan keng, chor burchak hovlining faqat bir cheti, fontani bor katta sement hovuz bilan uning atrofidagi gulzor va uch-to'rt tup keksa sada ko'rinardi. Hovuzda badanlari quyoshda cho'yandek qorayib ketgan bir to'da bolalar cho'milishardi. Sadaning tepasiga chiqib olgan bir bola ularga tosh otar, pastdagilar esa unga suv sepishar, lekin sepgan suvlari yetmagani uchun sadadagi bola kular, pastdagilari esa g'azablanar, tosh qidirardilar.

Bu manzaraga juda qiziqib ketgan ekanman, to'satdan: "Mumkinmi ozgina surilsangiz?" degan ovozni eshitib hushimga keldim. Ovoz shunday mayin va yoqimli ediki, go'yo yuzimga tog' shabadasi tekkandek, tez burilib qaradim.

Yonginamda oq shoyi ko'ylak kiygan o'n yetti-o'n sakkiz yoshlar chamasidagi qiz turardi. U kechikib kelganimni domla ko'rib ranjimasin deb qo'rqayotgan bo'lsa kerak, katta-katta qora ko'zlarini domladan uzmasdan, qaddini sal bukib turar, o'zi ham shoshib, yugurib kelgan bo'lsa kerak, ikki o'rim mayin, qo'ng'ir sochlarining uchlari yechilib, ko'ylagining etagini butun qoplab olgandi.

Bunday qizni birinchi ko'rishim edi. Uning chehrasida, hatto butun qiyofasida hali gard yuqmagani yoshlik va beg'ubor qizlik iffati barq urib turardiki, o'zimni yo'qotib qo'yib, unga joy berishni ham unutilman.

Qiz ko'zlarini domladan uzib menga qaradi va qoshlarini sal chimirib o'pkalangansimon:

- O'zgina surilish shuncha qiyinmi? - dedi sekin.

Shundagina o'zimga keldim, yonimga o'tirmoqchi ekanini tushunib, shosha-pisha surilib yonimdan joy berdim.

Qiz o'tirdi. Yuragim nimagadir duk-duk urar, nafasim bo'g'ildirdi. Bir lahza shu ahvolda unga qarashga jur'at etolmay ikkilanib o'tirdim, keyin sekin ko'z qirimni tashladim.

Qiz ko'zlarini dam domlaga, dam oldidagi daftariga tikib, doskadagi formulalarni ko'chirmoqda, o'zicha pichirlab, nimalarnidir takrorlamoqda edi.

Men yon tomondan uning uzun kipriklarining pipirashini, nimagadir chimirilgan baxmaldek qop-qora qoshlarini ko'rdim-u, yuragim yana gup-gup urib, ko'zlarimni olib qochdim. Nazarimda hamma bizga tikilib qarayotganga o'xshardi. To'satdan qiz men tomonga engashib:

- Kechirasiz, domla o'chirib qo'ydinglar, mana bu formulaning yozilishi to'g'rimi? - deb so'radi sekin.

Men ham unga tomon engasharkanman, peshonamga mayin soch tolalarining tegayotganini sezdim, lekin ko'zlarimga hech narsa ko'rinmas edi.

- To'g'ri, - dedim shoshib.

- Qiziq. Nimaga bo'lmasa buyog'i chatoq chiqyapti? Men zo'r kuch bilan hushimni to'plab, daftarini oldimga tortdim-da, harflar va raqamlardan tizilgan uzun, murakkab formulaga tikildim.

Shu topda men shunday bir ahvolda edimki, bu formulaning xatosini topish u yoqda tursin, miyamga hech bir fikr kelmasdi, lekin... (bu ham bir baxtdir-da!) to'satdan go'yo miyamda bir nur "yarq" etib, qizning "valentlik" bilan "atom" tushunchalarini chalkashtirib yuborganini sezib qoldim.

- Qachondan beri vodorod ikki valentli bo'lib qoldi? - dedim men unga qarab. - Kislorodni to'rtvalentli qilib qo'yibsiz-ku.

- Men atomlar sonini ko'rsatgan edim, - dedi qiz va meni gapirishga ham qo'ymasdan boshini tez-tez silkitib kuldi.

- Ha, ha, tushundim, tushundim!..

So'ngra daftarini oldiga tortib formulani qayta yozdi-da, allaqanday porlab turgan minnatdor ko'zlari bilan menga bir qarab qo'ydi.

- Rahmat sizga! - dedi u va sekin kuldi: - charchasa shunaqa bo'lar ekan...

Yoshlikda muhabbat nimaligini hali yaxshi anglab yetmagan, lekin ko'ngil sevgini qo'msay boshlagan bir davrda shunaqa paytlar bo'lar ekanki, bunday chog'larda chiroyligina emas, istarasi issiq qiz bo'lsa ham bir jilmayib boqishidan, bir og'iz iliq so'zidanoq mast bo'lib qolar ekan kishi.

Men ham u mahalda shunday davrni boshimdan kechirayotganim uchun bo'lsa kerak, yulduzi issiq bu qizning shirin muomalasi juda eritib yubordi.

Chindan ham mast edim. Quloqlarim tagida go'yo uning mayin ovozi qayta-qayta takrorlanar, "Rahmat sizga" degan so'zlari ruhimni erkaldirdi.

KonsulKjtatsiya tamom bo'ldi. Auditoriyadagi qiz-yigitlar shov-shuv bilan eshikka tomon yopirildi. Men daftar-kitoblarimni

yig'ishtirdim-u, nimagadir chiqib ketolmasdan to'xtadim. Men qizni kutardim. Lekin faqat shuning uchun to'xtab qolganimni hali o'zim ham sezmas edim. Shu mahal to'satdan biz tomon jilmayib kelayotgan silliq sochli yosh domlani ko'rib qoldim. Dastavval men uning nimaga iljayayotganini fahmlay olmasdan hayron bo'ldim, lekin ko'zim qizga tushdi-yu, darhol tushundim: domla qizga qarab jilmayib kelar, qiz esa nima uchundir, goh daftar-kitoblarini taxlar, goh yana stolga tashlar, quloqlari lovillab yonar, hayajonlanayotgani chehrasida aks etib turardi.

Xayolimga: "Nega bunday hayajonlanadi?" degan fikr keldi, o'zimni bolalar orasiga urib, tashqariga chiqayotganlarga qo'shilib ketdim, lekin eshikka yaqinlashgach, beixtiyor to'xtadim. O'z ixtiyorimdan kuchliroq bir narsa meni to'xtashga majbur etdi. Shu payt domlani "Salom, Muqaddasxon!" degan muloyim ovozi, so'ngra qizning sekingina: "Salom!" deb javob berganini eshitib, burilib qaradim. Ular boyagi joyda yonma-yon turishardi. Qiz ko'zlarini yerga tikib, stolda yotgan daftarlarini dam ochib, dam yopar, yigit esa uning yuziga, uyalganidan bo'lsa kerak, sal chimirilgan mayin qoshlariga termilib qolgan edi. Uning qizga bunday tikilib turishi negadir g'ashimni keltirardi. Lekin nega?

- Bugun kechikdingiz? - dedi domla kulimsirab. Qiz indamadi, faqat boshini silkitib tasdiqlab qo'ya qoldi.

- Hamma savollarga tushundingizmi?

- Ha, - dedi Muqaddas.

- Agar tushunmagan savollaringiz bo'lsa...

- Yo'q, hammasiga tushundim! - dedi qiz va birdan daftar-kitoblarini tez yig'ishtirib, domlani yonidan o'tdi-da, eshikka qarab yurdi.

Men unga yo'l berish uchun tisarilayotib ko'zim yana domlaga tushdi. U boshini sal egib, Muqaddasga yer tagidan tikilib qolgan, qizning javobi uni sarosimaga tushirib qo'ygani ko'rinib turardi.

Yo'lakka chiqqanimda, Muqaddas uning oxiriga yetib zinapoyadan pastga tusha boshlagan edi. Men jadalladim va yo'lakda u yoqdan bu yoqqa yurgan qiz-yigitlarni turtib-surtib, Muqaddas bilan ketma-ket ko'chaga chiqdim. Muqaddas o'ng qo'lga burilgan va endigina besh-olti qadam yurgan edi. Men ham u burilgan tomonga burildim. Yana xuddi boyagidek o'z ixtiyorimdan ustun bo'lgan bir kuch meni uning ketidan yurishga majbur qildi. Lekin unga yaqinlashishga jur'at etolmas edim. Men uning o'rimlari yechilib, ko'ylagining etagini qoplab olgan va goh o'ngga, goh chapga to'lg'anayotgan qo'ng'ir sochlaridan ko'zlarimni uzolmasdan borarkanman, Muqaddasning to'satdan o'girilib qarashidan hadiksirardim, nazarimda o'girilib qarasa, mening nima uchun ergashib kelayotganimni payqab qoladigandek tuyulardi.

Muqaddas muyulishga yetganda ro'paradan to'ladan kelgan, o'ng qoshining chetida katta qora xoli bor bir qiz chiqdiyu, ikkisi to'xtab gaplasha boshladi. Men ham to'xtadim. Nima qilishimni bilmaganimdan, xuddi osmonda bir narsa bordek, ko'kka tikila boshladim. Baxtinga sal o'tmasdan ikkovi ajrashdi. Muqaddas muyulishdan o'ng tomonga burilib ketdi, qiz esa menga qarab yurdi. U yerga tikilganicha yonimdan tez yurib o'tarkan, o'zicha nimagadir iljayib qo'ydi. "Nimaga kulimsiradi? Nahotki sezib qolgan bo'lsa?"

Muqaddas burilgan ko'chada, muyulishdan yuz ellik - ikki yuz qadam narida, institutning qizlar yotog'i bor edi. Men bu yotoqxonani yaxshi bilardim, chunki o'tgan yili ham institutga imtihon topshirib yurganimda Muqaddasga o'xshagan bir qizni yaxshi ko'rib qolgan edim, u qiz ham shu yotoqda turardi. Men har kuni ertalab uni bir ko'rish umidida yotoqxonaning yoniga bir kelib ketardim. Ko'chaning narigi yuzidan yotoqxonaning derazalariga tikilib o'tarkanman, birov ko'rsa bu yerda nima qilib yurganimni sezib qoladiganday, yuragim po'killab turardi. Keyin u qiz insti-tutga kirdi, men esam kirolmay qoldim-u, asta-sekin esimdan chiqarib yubordim... Nahotki, Muqaddas ham shu yotoqxonada tursa?

Muqaddas to'xtadi. Yotoqxonaning oldida turgan qizlar to'piga qo'shilib bir zum ko'rinmay qoldi, so'ngra uning xipcha kelishgan qomati zinapoya ustida bir ko'rindi-yu, yana g'oyib bo'ldi. Ikki o'rim uzun qo'ng'ir sochlarining so'nggi marta nafis to'lg'anganini ko'rib qoldim.

Muqaddas yotoqxonaga kirib ketishi bilan men ham hushimga keldim. Uning menga kulib qaragan qop-qora ma'sum ko'zlari esimga tushib, "Rahmat sizga!" degan muloyim ovozi quloqlarim ostida qayta jaranglagandek tuyuldi-yu, a'zoyi badanimdan issiq chiqib ketdi...

Orqamga qaytdim. Muyulishga yetganimda to'satdan hujjatlarimni hali topshirmaganim esimga tushib qoldi... Sekin yurib institut ro'parasidagi daraxtzor maydonga bordim. Shoxlari bir-biriga chirmashib ketgan sadalar, nozik akatsiyalar, ularni quchoqlab, boshlarini silab turgan qudratli emanlarning soyasidagi qator o'rindiqlarning hammasini qiz-yigitlar egallab olgan. Hammasining qo'lida kitob. Lekin menga shunday tuyuldi, xuddi ular bu yerga dars tayyorlash uchun emas, chaqchaqlashib o'tirish uchun kelganlar. Uzun xiyobonning o'rtasiga borganimda, chap tomondagi skameykalarning birida o'tirgan ikkita qiz bilan ingichka mo'ylov qo'ygan bir yigitcha o'rinaridan turdilar. Yigitcha darhol ikkita qizning o'rtasiga kirib ularni qo'litiqlab oldi, bir nimani aytib ularni kuldirdi va uchovi xoxolashib, institutga qarab ketdilar. Ularning o'rniga o'tirarkanman, "Nahotki shular kirganda men kirolmasam?" degan fikr ko'nglimdan o'tdi va negadir yana Muqaddas esimga tushib ketdi... Erta-indin mana shunaqa oliftalardan bittasi shu xiyobonlarda uni ham qo'litiqlab yurmasmikin? Yo men bu oliftadan kammanmi? Nimaga bu o'qiganda men o'qimas ekanman? O'qishga kirishning nima aybi bor? Hech aybi yo'q!"

* * *

Shundan keyin uch-to'rt kungacha Muqaddasni ko'rolmadim. Lekin u shirin bir tush kabi sira xayolimdan ko'tarilmas edi. Kechqurunlari kitobdan charchab, uyqum kelmasdan yulduzlarga tikilib yotgan chog'larimda, doim uni esladim. KonsulKjtsiya kuni engashib savol berganida peshonamga tekkan mayin soch tolalari, muloyim tabassumi ko'z oldimda bir zum gavdalanar, quloqlarimga "Rahmat sizga" degan mayin ovozi eshilib ketardi-yu, totli va haroratli bir tuyg'u qalbimni to'ldirardi... Shu alfozda ikki kun o'tdi, uchinchi kuni birinchi imtihon edi... Mening kelajagim, o'qish yo o'qimasligim shu imtihonga, to'g'rirog'i, o'sha ajoyib qizni uchratish-uchratmasligimga bog'liq edi.

Shunday deb o'ylaganim uchun bo'lsa kerak, o'sha kuni juda erta turdim. Oyim damlab qo'ygan choyni naridan-beri ichdim-da, yo'lga tushdim. Oyim ketimdan ko'chaga chiqdi. Indamasam institutgacha boradigan. Qattiq koyib berdim.

Institutda odamning ko'pligidan eshikka yaqinlashib bo'lmas edi. Men o'tgan yiliyoq imtihon paytida, o'qishga sira aloqasi bo'lmagan odamlarning ham institut ostonasida sanqib yurishini ko'p ko'rgan edim, lekin nazarimda bu yil odam o'tgan yilgidan ham ko'p edi. Bir minutga ularning hammasi ko'zimga mehnatdan qochib yurgan erkatoylarga o'xshab ko'rindi-yu, g'azabim qo'zg'adi, lekin shu payt xayolimga: "O'zing-chi, o'zing nima qilib yuribsan?" degan fikr kelib, ko'nglim g'ash bo'ldi. Xijolat bo'lib o'z yimni olomonga urdim. Turtib-turtkilanib yurib eshikka zo'rg'a yetib oldim-da, o'sha yerda navbatchilik qilib turgan yuqori kurs

studentlariga imtihon qog'ozimni ko'rsatib, yuz mashaqqat bilan ichkariga kirib oldim.

Ichkarida ham odam ko'p edi. Qator eshiklarning oldida, har yer-har yerda to'p-to'p bo'lib yoshlar turar, ularning shivirlashgan hayajonli ovozlari eshitilar, asabiy harakatlari ko'zga tashlanardi. Bu yerda hukm surgan allaqanday vahima mening ham vujudimga singib, go'yo qon tomirlarimdan yuragimga borib yetdi-yu, to'satdan oyoqlarim madori quriganday bo'ldi. Muqaddas ko'rinmas edi. Nahotki boshqa fakulKjtetga kirgan bo'lsa? Zinapoyadan sekin yurib ikkinchi qavatga chiqdim-da, yuragim gup-gup urib chap qo'lga burildim.

Tor yo'lakning narigi boshiga yaqin joyda, men imtihon topshiradigan o'ttiz beshinchi auditoriyaning oldida bir guruh abituriyentlar to'plangandi. Imtihon boshlanishiga uch-to'rt minut qolgan. Ularga qarab besh-olti qadam bosganimda yuragim birdan "shig" etib, a'zoyi badanim jimirlab ketdi: qizlarning orasida Muqaddas ham bor edi!

Muqaddas teskari qarab turgan bo'lsa ham men uni darrov tanidim; oq shoyi ko'ylagining etaklariga tushib turgan ikki o'rim qo'ng'ir sochidan va aytib berish juda qiyin bo'lgan yana allanimalaridan tanidim. Muqaddas boshini tez-tez irg'atib, yonidagi dugonalariga nima to'g'risidadir kuyib-pishib gapirmoqda edi, yaqinlashib qolganimda qizlardan biri unga meni ko'rsatib bir nima dedi. Muqaddas "yalt" etib qaradi va yuragimni olovli hayajonga to'ldirib, menga tomon bir qadam bosdi-da, yana to'xtadi. Uning jovdiragan quralay ko'zlaridan, tortinib, uyalib qarashidan bir nimani so'rashdan iymamayotgani ko'rinib turardi.

- Voy aytaver, nimasi uyat? - dedi shu vaqt qizlardan biri. Bu o'sha tinov kuni muyulishda uchragan va yonimdan yerga qarab kulib o'tib ketgan qora xollik qiz edi.

To'xtadim. Muqaddas menga tomon yana bir qadam tashladi-da, u ham to'xtadi:

- Kechirasiz, - dedi u, negadir qizarib tirnoqlariga tikildi, - kechirasiz, men Abdullaeva bo'lganim uchun birinchi besh kishi qatorida kirishim kerak edi. Shunga... shundan juda qo'rqapman. Mening o'rnimga kirolmaysizmi? Boshqalarga aytсам hech kim unamaypti. - Muqaddas boshini ko'tarib yuzimga qaradi. Uning ko'zlari ayni vaqtning o'zida ham umid, ham iltimos va tasvir etish qiyin bo'lgan allaqanday hislarni ifoda etib, porlab, jovdirab turardi.

Oldin shoshib qoldim. Muqaddasning bu iltimosi uch-to'rt kundan beri chizib yurgan hamma rejalarimdan ham a'lo chiqqani uchun bo'lsa kerak, o'zimni yo'qotib qo'ydim. Faqat Muqaddas boshini ko'tarib, allaqanday qo'rqib qaragandagina hushimga keldim va "xo'p" deb yuborganimni o'zim ham sezmay qoldim.

Odatda imtihonga birinchi bo'lib kirish, kuzda sovuq suvga sho'ng'ishdan ham qiyin tuyuladi, hatto o'z bilimiga ishongan kishi ham nimadandir hadiksirab, eti junjikib turadi. Bu jihatdan men ham o'zimni dovyuraklar qatoriga qo'sholmayman, lekin bu safar men "xo'p" deb javob berganimda, Muqaddasning qop-qora ko'zlarida chaqnagan minnatdorlik ifodasi ko'nglimga dalda berdi chamasi, imtihonga juda dadil kirdim, odatdagidek ikkilanib turmasdan biletni ham dadil oldim...

Men "omad" degan so'zga ishonmayman, lekin "omad kelishi" rost bo'lsa, shu safar mening omadim yurishgan ekan! Menga ayni o'zim tilab yurgan savollar tushgan edi: birinchi savol - sakkizinchi sinf programmasidan NKjyuton qonuni, ikkinchisi qarshilik kuchi, uchinchisi osongina bir misol!..

Men bu savollarni shunchalik yaxshi bilar edimki, hatto: "Tayyorlik ko'rib o'tirmasdan javob berib qo'ya qolsammikin?" degan fikrga ham bordim, faqat xayolimni yig'ishtirib, o'zimni bosib olish uchungina o'tirib hozirlik ko'ra boshladim.

Imtihon oluvchi komissiya ikki kishidan iborat edi: bittasi oltmish yoshlar chamasidagi, tuksiz yumaloq boshi quyoshda cho'g'dek qizarib, jigarrang tusga kirgan bir chol edi, ikkinchisi tinov kuni konsulKjtatsiya vaqtida Muqaddasning yoniga kelib hol-ahvol so'ragan silliq sochli tanish yosh domla edi. Men o'tirishim bilan u qo'lida bir varaq qog'oz ushlagani holda eshikka bordi va u yerda navbatchilik qilib turgan student yigitchadan:

Tavakkal qilib birinchi bo'lib chiqdim. Dastavval yosh domla Muqaddasni so'raganini eshitganimda bir oz hadiksiragan, savol yog'dirib yiqitishga harakat qilmasa deb xavotirlangan edim. Lekin u faqat bitta qo'shimcha savol berdi. U ham bo'lsa atom yadrosi to'g'risida edi. Men bo'lsam bu murakkab hodisa bilan shunchalik qiziqar edimki, hatto o'rta maktab darsligidagi ma'lumotlargina emas, atom to'g'risida bosilib chiqqan va ko'zim tushgan ommabop maqola va broshyuralarni ham qidirib topib, o'qib yurar edim. Keksa domla buni javobimning boshidanoq sezib qoldi shekilli, gapim tugamasdanoq:

- Bo'ldi, o'g'lim, bo'ldi, balli, - dedi va imtihon qog'ozimni olib, qo'l qo'ya boshladi.

Men imtihon qog'ozimni olib qaramasdanoq besh olganimni tushundim va to'satdan o'zimni qushdek yengil his etib tashqariga otildim.

Yo'lakda meni Muqaddas kutib turardi! U ro'paradagi chang bosgan yopiq derazaning oldida, fizika darsliklarini ko'kragiga bosib, ikkita qiz bilan gaplashib turardi. Lekin eshik ochilgan hamon "yalt" etib qaradi. Shu qarashidan, katta-katta qora ko'zlarida birdan chaqnagan allaqanday ifodadan u meni kutib, men uchun qayg'urib, hatto xavfsirab turganini bildimda, ko'nglim yana ham charaqlab ketdi.

Muqaddas jilmayganicha oldimga keddi.

- Nima bo'ldi? - dedi u qo'limdan ushlab. Mening "besh" degan javobimni eishitishi bilan chehrasidagi gunohkor ifoda chuqur ichki bir shodlik bilan almashdi-yu, yuziga go'yo yorug' bir nur quyuldi.

- Voy, men sizni yiqilib qolmasangiz deb shunday qo'rqdim, shunday qo'rqdimki! - dedi Muqaddas kulib.

U yana bir nima demoqchi edi, lekin shu mahal eshikda turgan yigitcha:

- O'rtoq Abdullaeva! - deb chaqirib qoldi. Muqaddas seskanib ketdi-da, darhol eshikka tomon yurdi, yo'l-yo'lakay burilib qaradi:

- Endi mening ham besh olishimni tilab turing! - dedi u hayajonli, titroq ovoz bilan.

- "Tilab turing..." bu nima degani? Men chiqquncha ketib qolmasdan kutib turing, degani emasmi?.. Qanday ajoyib qiz!..

Uzun yo'lakda sekin yura boshladim. Boya dastavval kirib kelganimda yo'lakda hukm surgan ovozlari, vahimali gaplar endi tag'in ham kuchaygan edi. Kimdir yig'lar, kimdir uni yupatar edi. Lekin ajabo: bu galparning ma'nosi mening xayolimga borib yetmas, men faqat bitta ovozni - Muqaddasning muloyim ovozini eshitar edim. Quloqlarim tagida uning: "Voy, men sizni yiqilib qolmasangiz deb shunday qo'rqdim, shunday qo'rqdimki!" degan so'zlari tinimsiz takrorlanar, ajib bir musiqa kabi ruhimni erkalar, xayolimni ko'klarga ko'tarardi.

Yarim soatcha shu ahvolda yurdim. So'ngra eshikka tikila boshladim. Men bilan baravar kirganlarning hammasi qaytib chiqishdi, ulardan keyin kirganlardan yana bitta qiz ham chiqdi. Muqaddasning esa hamon daragi yo'q. Asta-sekin yuragimda to'lib-toshgan shodlik allaqanday taraddud va qo'rquv bilan almasha boshladi...

Qiziq, Muqaddas kechikkan sayin mening ham hushim o'zimga kela boshladi. Men endi atrofimdagi qiz-yigitlarni taniy boshladim, ularning gap-so'zlariga, yaxshi topshirib chiqqanlarning shodligiga, yiqilib chiqqanlarning qayg'usiga tushunadigan bo'lib qoldim. Boya yig'layotgan qizga e'tibor bermagan bo'lsam, endi uning xuddi Muqaddasga o'xshagan yoshgina bir qiz

ekanini ko'rib, rahmim kelib ketdi.

Qizning atrofini qurshab olgan uch-to'rtta dugonalari uni hamon yupatishar, u bo'lsa hech kimga quloq solmasdan kuyunib-kuyunib yig'lar edi. Men uni ko'rdim-u, negadir yosh domlanning tunov kuni Muqaddasning ketidan jimgina g'amgin tikilib qolgani esimga tushib ketdi... Ko'nglimdagi boyagi shodlik endi qandaydir og'ir vahima bilan almashdi. Lekin xuddi shu mahal eshikdan Muqaddas ko'rindi. Uning allaqanday charaqlab ketgan ko'zlariga, xuddi gulxanning taptida toblangandek gul-gul yongan yuziga ko'zim tushishi bilanoq imtihonni muvaffaqiyatli topshirganini angladim. Unga qarab intildim, qo'lini siqib tabriklash uchun shoshildim, lekin yo'lakda turgan qiz-yigitlar uni mendan oldin qurshab oldilar... Qizlar u bilan o'pishib ketishdi, yigitlar esa qo'lini qisib tabriklay boshladilar. So'ngra Muqaddas yig'layotgan qizni quchoqlab nimanidir qizg'in tushuntirishga kirishdi. Men esam... nahotki, meni esidan chiqarib yuborgan bo'lsa...

U atrofga alanglab, kimnidir qidira boshladi, to'satdan ko'zlarimiz to'qnashdi, yuzidagi tabassumdan meni izlaganini tushundim!

U menga qarab yurdi, men unga.

- Tabriklayman, Muqaddasxon!

Muqaddas butun vujudi bilan kulib, quv nab javob berdi:

- Rahmat! Ko'rdingizmi, navbat almashganimiz qanday yaxshi bo'ldi! Siz ham besh oldingiz, men ham! Endi doim shunaqa qilaylik! Bo'ptimi? - dedi u.

- Bo'pti, - dedim chin yurakdan quvonib.

U yuzimga bir sekund tikildi, go'yo meni birinchi marta ko'rayotgandek allaqanday sinovchan nazar bilan tikildi, so'ngra yerga qaradi. Uning nimadandir xijolat chekib quloqlari birdan lovillab yonganini ko'rdim-u, o'zim qizarib ketdim. Muqaddas dilimdagi hislarni sezgan edi!..

O'rtamizda qandaydir bir o'ng'aysizlik vujudga keldi. Bu o'ng'aysizlik bizni yo'lakda yurgan navbatchi yigitning: "Imtixon topshirib bo'lganlar bu yerda turmasin!" degan buyrug'i qutqazdi.

Sekin yurib birinchi qavatga tushdik, so'ngra ko'chaga chiqdik va ostonani qurshab olgan olomonni zo'rg'a yorib, yotoqxonaga tomonga o'tib oldik. Lekin endi nima qilish kerak? Buni ikkimiz ham bilmas edik. Men Muqaddasning to'satdan tumtayib, indamay qolganidan birga yurishimizdan siqilayotganini, uni uyaltirmaslik uchun xayrlashishim kerakligini sezib turdim, lekin oyoqlarim o'z ixtiyoriga qarshi meni ilgari sudrab borar, orqada qolmoqchi bo'lsam ham qololmas edim.

Quyosh baland ko'tarilib, hammayoqni issiq alangaga ko'mib yuborgandi. Harorat shunchali zo'r ediki, trotuarning soya tushmay qolgan joylariga oyoq qo'yib bo'lmas, issig'i tuflidan o'tib tovonni kuydirardi.

Havoda g'ir etgan shabada yo'q, daraxtlar ham odamlardek issiqdan tolib, mudrab turardi. Qani endi shunday paytda Muqaddas "xo'p" desa-yu, birorta sersoya xiyobonga kirib dam olsak, yo birga dars tayyorlasak!

Birdan nima ham bo'ldi-yu, ko'zim ikkinchi qavatning tepasiga tushdi. Biz imtixon topshirgan auditoriyaning eng chetgi derazasi oldida ikkimizga qandaydir ma'yus tikilib... boyagi yosh domla turardi! "U nima qilib turibdi? Nega bunday tikilib qaraydi" deb o'yladim. Bir zumda qalbimni to'ldirgan yorug' hislarga ham allaqanday soya tashlagandek tuyuldi.

Domlanning kuzatib turganini Muqaddas ham ko'rib qoldimi, yo uyalganidan shunday qildimi, ishqilib muyulishga yetmasdanoq to'xtadi va yerga tikilib:

- Siz qayoqqa ketyapsiz? - deb so'radi. Men shoshib qoldim. Azbaroyi nima deb javob berishimni bilmaganimdan:

- Men... agar bo'sh bo'lsangiz dars tayyorlardik! - deb yubordim. Muqaddas bopshni yana ham pastroq tushirdi.

- Kechirasiz, men borolmayman.

- Nega?

- Negaki... men o'zim shunaqaman, - dedi Muqaddas, - besh olgan kunim hech dars tayyorlay olmayman.

- Bo'lmasa... kinoga boraylik! - dedim men, dedimu, shu so'zni aytishga jur'at etganimdan o'zim ham hayron qolib, qizarib ketdim.

Muqaddas "yalt" etib yuzimga qaradi. Taklifim uning qulog'iga yomon eshitilganini ko'zlaridan payqadim. Lekin o'zimning ham qizarib ketganimni ko'rib, uyalib qolganimni sezdi chamasi, ko'zlaridagi sovuq ifoda darhol yumshadi.

- Rahmat. Oldin imtihonlarni topshirib olaylik, - dedi u tuflisining uchi bilan yer chizib, keyin qo'shimcha qildi:

- Endi... Xayr...

Yo'q, Muqaddas buyruq bermas, u faqat iltimos qilar, dugonalarning ko'rib qolishidan uyalgani uchungina ajrashishni istar edi!

- Ko'rishguncha, - dedim men.

- Xayr, - dedi Muqaddas va yuzimga bir qarab olgach: - ximiyani ham shunaqa qilib topshiramizmi? - deb so'radi.

- Albatta, - dedim kulib. Biz ajrashdik.

Bilasizmi, ilk bahor paytida yomg'irdan keyin osmon boshqacha bir tiniq moviylik kashf etadi. Yomg'irda cho'milgan daraxtlar xuddi to'yga yasangan qizlardek ochilib, havo xushbo'y hidlarga, qushlarning chug'ur-chug'uriga to'lib, olam yashnab ketadi.

Muqaddas bilan xayrlashib orqamga qaytarkanman, mening ko'nglim ham xuddi yomg'irdan keyingi osmondek charaqlab ketgandi. Go'yo hamma menga kulib boqar, go'yo yolg'iz men emas, hamma baxtiyor, go'yo odamlarning hammasi birdan bir-biriga mehribon, juda muloyim, juda yaxshi, juda g'amxo'r bo'lib qolgan edilar.

* * *

Uyga kechroq qaytdim. Biz ko'lning orqasida, Bo'zsuvning bo'yida yangi uchastkada turardik. Hovliga kirishim bilan ko'zim jigarrang yo'l-yo'l pijamasini kiyib, ishkorning tagidagi so'rda yonboshlab gazeta o'qib yotgan dadamga tushdi, oyim hovli supurmoqda edi. Eshikni ochishim bilan dadam qo'lidagi gazetasini, oyim supurgisini tashlab menga qaradi. Aftidan ko'nglimdagi shodlik yuzimda shundoq aks etib turgan bo'lsa kerak, ikkisi ham birdan:

- Beshmi? - deb so'rashdi.

- Shunaqaga o'xshaydimi? - dedim men.

Oyim peshonamdan o'pdi. Dadam esa yostiqa qayta yonboshlarkan:

- Ana, ko'rdingmi, kecha o'rtoqlar bilan gaplashib qo'yganman, desam ishonmovding, - dedi qo'lga gazetasini olib.

- Siz bultur ham shunaqa degan edingiz, - dedi oyim.

Dadam birdan qo'lidagi gazetani chetga otib yubordi, uning oq oralagan siyrak sochlarining tagidan boshining qizarib ketgani, lablarining pirqirab ucha boshlagani ko'rindi.

- Xo'p, men hech kim bilan gaplashmadim. Bultur ham gaplashgan emasman, bu yil ham! - dedi u titroq, ayanchli ovoz bilan.

Ularning janjalini, ayniqsa o'gay dadamning xuddi bir nimadan arazlagan yosh bolaning ovozi ayanchli ovozi eshitmaslik

uchun uyga kirib ketdim. Bir yildan beri davom etib kelayotgan bu ko'ngilsiz janjal menga juda og'ir botardi. Birinchidan, oyimning institutga kirolmaganim uchun hamma aybni dadamga to'nkashi qattiq tegsa (Salim Karimovich institutda o'qituvchi edi), ikkinchidan, bultur bo'lib o'tgan katta bir janjal ustida men Salim Karimovichning o'z dadam emasligini, u menga faqat o'gay ota ekanligini bilib qolgandim. O'shanda oyim, aftidan, mening borligimni unutib qo'yib: "Sharif o'z bolangiz emas-da, o'z bolangiz bo'lganda-ku..." deb yuborgan, keyin ko'zi menga tushib gapi og'zida qolgan, lekin, shu bir gapning o'zidanoq menga hamma narsa ayon bo'lib qolgan edi. Bu gap menga juda qattiq ta'sir etgan, shunchalik qattiq ta'sir etgan ediki, uydan chiqib ketib, bir-ikki kun boshqa yoqlarda yurib kelgandim... Shundan keyin oyim o'z dadamning urushda halok bo'lganini, urushdan oldin esa mashinasozlik zavodida konstruktor bo'lib ishlaganini gapirib bergandi. Men oyimdan Salim Karimovichga qanday turmushga chiqqanini so'ramadim, albatta, lekin o'sha voqeadan beri uni negadir "dada" deb emas, "Salim Karimovich" deb chaqirgim keladigan bo'lib qoldi. Buning sababini o'zim ham tushunolmayman, chunki Salim Karimovich yomon odam emas, u meni juda yaxshi ko'radi, o'g'lim deb chaqiradi, ehtimol o'z bolasi bo'lmagani uchundir, juda yaxshi muomala qiladi.

Salim Karimovich institutda ko'p yillardan beri oddiy o'qituvchi bo'lib ishlar, demak uning qo'lidan keladigan yordami ham juda chamali edi. Lekin oyim buni tushungisi kelmas, bulturdan beri uni qiynab kelardi. Men dadamning bultur yaxshigina harakat qilganini, o'qishga kirolmay qolganimda mendan ham ko'proq iztirob chekib yurganini bilardim. U hatto meni institutga laborantlik ishiga joylashtirib qo'yishga ham harakat qilib ko'rgandi, lekin bunga men o'zim ko'nmagandim. Oyimdan o'z dadam to'g'risidagi gaplarni eshitganimdan keyin, ayniqsa dadam mashinasozlik zavodida konstruktor bo'lib ishlaganini bilganimdan keyin, nimadir meni shu zavodga torta boshlagan, nazarimda u yerga bormasdan boshqa joyga borib ishlasam, otamning xotirasiga hurmatsizlik bo'ladigandek tuyulgandi menga. Oldin oyim bilan Salim Karimovich bu gaplarimni eshitgilari ham kelmagan edi, biroq bir kuni nima ham bo'ldi-yu, oyim ertalab chiqib ketib, uyga uzun bo'yli, qotma, sochlari oppoq oqargan, lekin shop mo'ylovi qop-qora odamni boshlab keldi. Bu odam Sulaymon aka edi.

Sulaymon aka dadamning eng yaqin do'sti bo'lganini, ular birga o'qib, birga ishlaganlarini, o'zi ham soddagina bir odam ekanini keyinchalik bildim, biroq birinchi uchrashganimizda u menda g'alati taassurot qoldirgan, shop mo'ylovi ham, yo'g'on do'rillagan ovozi ham allaqanday yasama tuyulgandi.

Sulaymon aka meni zavodga o'zi boshlab borgan, hujjatlarimni o'zi to'g'rilatib, o'z sexiga olib kirgan va keyinchalik qadrdon bo'lib ketgan mana shu universal tokarlik stanogimda birinchi detalni o'zi yasab ko'rsatgan edi.

Otamning xotirasi hurmatigami, yo meni chindan ham yaxshi ko'rib qolganidanmi, bilmadim, ishqilib, Sulaymon aka menga doim xush muomala qilar, ba'zan uyiga, ba'zan sexning bir chetidagi kichik, tor kabinetiga boshlab kirib suhbatlashib turardi. Men unga juda o'rganib qolgandim. Umuman shu bir yil ichida men zavodga, motorlarning g'uv-g'uviga to'lgan katta, ulug'vor seximizga, o'zinning universal stanogimga, do'stlarimga juda o'rganib, yaxshi ko'rib qolgandim.

Oyim bilan dadam o'rtasida bo'lib o'tgan janjal ta'sir etdi chamasi, buning hammasini yana bir esladim. Lekin qiziq, bu safar institutga hujjat topshirayotganimgadidek ko'nglim xira bo'lmadi. Muqaddas bilan uchrashuv quvonchi ko'nglimning bir chetida uyg'ongan shubhani yengib ketgandi...

Muqaddasni eslashim bilan issiq bir tuyg'u yana a'zoyi badanimni jimirlatib o'tdi. O'zim ham beixtiyor jilmayib o'tirgan ekanman shekilli, uyga oyim kirib:

- Supaga chiq bolam, ovqat tayyor, nimaga kulasan! - deb so'ragandagina hushimga keldim. Oyim kulgimni boshqa narsaga yo'yib: - Ilohim boshqalaridan ham besh bo'lsin! - deb qo'ydi.

Ovqat vaqtida oyim bilan Salim Karimovichning orasida yana o'sha eski gap qo'zg'alib ketarmikin, - degan xavotirda edim. Yaxshi ham bu gap qo'zg'almadi. Boyagi so'zlarning o'zigami, yo men uyga kirib ketgandan keyin ham janjal davom etganmi, bilmadim, ishqilib, dadamning qovog'i soliq edi. U hatto vaziyatini ham o'zgartirmagan: o'ng qo'ltig'iga ikkita par yostiqni bosib, hamon gazeta o'qib yotardi. Yoshi elliklarga borib qolgan, institutda o'qituvchilik qilayotgan bu salobatli odam ba'zan yosh bolaga o'xshab ketar, arzimagan narsadan ham xafa bo'laverardi.

Shunday paytlarda mening unga rahmim kelardi. Bugun vaqtim choq bo'lgani uchunmi, bilmadim, har qalay unga biron yaxshilik qilgim keldi. To'satdan xayolimga: "Bular mening Muqaddasni sevib qolganimni bilib qolishsa nima qilishar ekan?" degan fikr keldi. Bir daqiqa ko'zimga supaning chetida o'tirib, dadamga uyalibgina piyolada choy uzatayotgan Muqaddas ko'rinib ketdi. Bu orzu shunchali shirin ediki, uning davomini o'ylash istagida ovqatdan bir-ikki qoshiq yedim-da, joyimga borib yotdim... Men hovlining kun botish tomonidagi xilvat burchakka, o'zim ekan ikki tup olmaning tagiga karavot qo'yib olgandim. Karavotning ostidan ariqcha o'tar, tunu-kun tinimsiz oqqan suv kechalari ruhimni allalar, kitobdan charchagan chog'larimda orom berardi. Bugun bu xilvat joy ko'zimga yana ham jozibali ko'rinib ketdi. O'zimni karavotga tashlab, olmaning quyuq yaproqlari orasidan osmonga tikildim.

Quyosh botgan, bog'ni faqat yoz oqshomlaridagina bo'ladigan mayin va sokin bir qorong'ilik chulg'amoqda edi. Jimjit, faqat qo'shni hovlida chaqaloqning yig'isi-yu, karavotning tagidan o'tayotgan suvning mayin shildirashi eshitiladi, yaproqlar orasida bitta-yarimta oltin nuqtalar jimirlaydi. Ana qaerdandir uzoqdan, aftidan ko'ldan bo'lsa kerak, qandaydir ma'yus, lekin yorug' esdaliklar uyg'otuvchi bir kuyning ovozi kela boshladi. Xayolim kuzda iliq mamlakatlarga qarab uchgan qush kabi yana Muqaddasga qarab uchdi... Orzuning chegarasi yo'q. Men uning shu uyda, shu hovlida yurishini, shu ariqning bo'yida, supaning yonidagi kranning tagida o'tirib, ajoyib qo'ng'ir sochlarini yuvishini ko'z oldimga keltirdim...

Uzoqdan, ko'ldan eshitilayotgan ma'yus kuy sekin avjiga chiqmoqda edi. Kuy avjiga chiqqan sayin mening shirin xayollarim ham chuqurlashib borardi... Biz albatta birga o'qiyimiz, har kuni yarim kechagacha birga o'tirib dars tayyorlaymiz, so'ngra... So'ngra uydan chiqib, bu yerga kelamiz... Yo'q, men bir o'zim chiqaman va karavotga yotib uni kuta boshlayman. U bo'lsa... Uy yig'ishtirgan bo'lib yana anchagacha chiqmay o'tirib oladi. Nihoyat, uying chirog'i o'chadi va qorong'ida uning ship-ship etgan oyoq tovushlari, "qayoqda qoldingiz, Sharif aka?" degan mayin ovozi eshitiladi. Men o'rnimdan sakrab turaman va uni qo'llarimga ko'tarib, kulgan lablaridan, ko'zlaridan o'paman...

Darvoza tomondan eshitilgan "Sharif, ho Sharif!" degan ovoz xayolimni bo'lib yubordi. O'rnimdan turib o'tirdim.

- Birov chaqiryapti, chiqib qara! - dedi oyim. Shu vaqt "Sharif, ho Sharif!" degan ovoz qayta takrorlandi. Bu - To'laganning ovozi edi.

- To'laganga o'xshaydimi? - dedi oyim ham. To'lagan ikkimiz bir sexda ishlardik. U mendan ikki yil oldin zavodga kirgan "tajribali" tokarlardan. Bultur ishga kirganimda Sulaymon aka meni unga "shogird" qilib tayinlagan edi. Shundan beri To'lagan o'zini menga yaqin olib yurar, men ham uni hurmat qilardim. Lekin hozir uning kelishi menga negadir yoqmadi, hatto ko'nglimda allaqanday bir qo'rquv uyg'otdi: "Kechasi nima qilib yuribdi?"

- Qo'l tegmayapti, do'stim, qani uyga kir, birpas gaplashib o'tiramiz, - dedim qandaydir yengil tortib, lekin To'lagan kirmadi. Uni menga Sulaymon aka yuborgan ekan. Ertaga zavodga borib uchrashar emishman. Yuragim yana "shuv" etib ketdi.

- Nima ishlari bor ekan? Aytmadilarmi?

- Yo'q, - dedi To'lagan. U yana papiros olib tutatdi. Gugurtning yarq etgan shu'lasida lablaridagi tabassum ko'rinib ketdi.

- Nega kulasan?

- O'zim...

- Otpuska mahalidayam tinch qo'yishmaydilar-da!

- Obbo seni-ey! - To'lagan qah-qah urib kuldi va yelkamdan quchoqlab o'ziga tortdi: - Sulaymon akaning senga aytadigan gapi bor ekan, shunga chaqirdi.

- Qanaqa gap? - dedim shubhalanib, - nimaga yashirasan?

- Ie, qiziqmisan? - dedi To'lagan, - uning nima deyishini qayoqdan bilay? Ertaga o'zingga aytar axir!..

To'lagan ketdi. Men darvozaning oldida ancha turib qoldim. Ko'nglim g'ash, boyagi quvonchli, shirin, ammo tagi yo'q xayollardan asar ham qolmagan edi.

"Nimaga chaqirishi mumkin? Yana qanaqa gap chiqib qoldiykin? Yo institutga kirmoqchi bo'lganimni eshitib qoldimikin? Eshitib qolgan bo'lsa nima deyman? Umuman... shunday yaxshi jamoadan, bir yil ishlab orttirgan do'stlarimdan ajrab to'g'ri qilyapmanmi, yo'qmi?" Bir haftadan beri unutishga harakat qilib yurganim bu o'ylar xayolimni yana chulg'ab oldi.

* * *

Ahvolimning chatoqligi shunda ediki, Muqaddas ikkimizni bir-birimizga yaqinlashtira oladigan yakkayu yagona vosita hozircha imtihon edi. Shuning uchun ham imtihondan qo'rqish uyoqda tursin, uning tezroq kelishini istardim.

Imtihon kuni yana juda erta uyg'ondim. Bu safar choyga ham qaramasdan apil-tapil kiyindim-da, institutga chopdim. Imtihonga kechikib qolishimdan emas, Muqaddasning boshqa birov bilan kelishib qo'yishidan qo'rqardim. Lekin institutga yetib, tanish akatsiyalarga ko'zim tushishi bilan behudaga qo'rqanimni, umuman to'rt kundan beri chekib kelgan iztiroblarim, umidsizlikdan qiynalib yurganlarim - hammasi bekor ekanini tushundim: Muqaddas meni kutib turardi! Avvalgi safargidek, ichkarida, auditoriyaning eshigida ham emas, ko'chada, institutning oddidagi akatsiyaning tagida kutib turardi!..

Bu safar uning egnida havorang krepdeshin ko'ylak, boshida tagdo'zi do'ppi, oyog'ida yengil bosonojka edi. Havorang ko'ylak chehrasini ochib yuborganidanmi, yo tagdo'zi do'ppi juda yarashib tushganidanmi, bilmadim, ishqilib Muqaddas ko'zimga tunov kungidan ham latofatli bo'lib ko'rindi. U shunday jozibali va ma'sum ediki, ilk gullagan bodom niholini eslatardi. Meni ko'rishi bilan oldimga qarab yurdi. Ko'zlarida birdan chaqnagan quvonchdan, lablarida o'ynagan tabassumdan Muqaddasning meni, yolg'iz meni kutib turganini bildim-u, yuragim yana bahor kuylariga, bahor quyoshidek iliq va yorug' hislarga to'lib yayrab ketdi.

Biz qo'l berishib ko'rishdik. Muqaddas qoshlarini o'pkalangansimon chimirib:

- Voy, men sizni kechikib qolarmikansiz deb, jonimni hovuchlab turibman-a? - deb kuldi. Menga uning kulgisida ham allaqanday erkalik aralash bir ginaxonlik bordek tuyuldi.

- Men kechikar ekanmanmi? - dedim, - siz bilmaysiz Muqaddas, men sizni har kuni...

- Yuring, - dedi Muqaddas so'zimni bo'lib, go'yo gapimning oxirini eshitishdan qo'rqib, - ichkariga kiraylik...

Xuddi tunov kungidek menga ham shunday tuyuldiki, go'yo u yuragimdagi tuyg'ularni sezar, sevib qolganimni his etar va buni gapirib qolishimdan qo'rqar edi.

"Qanday ajoyib qiz!" - Muqaddasning o'rniga imtihonga kirarkanman, ko'nglimdagi hamma g'alayon bosilgan, xayolim ravshan edi.

Lekin turmush shunaqa narsa ekanki, u o'ng qo'li bilan boshingizni silasa, chap qo'li bilan yuzingizga tarsaki tushirib turarkan. O'sha kuni imtihondan yiqilishimga oz qoldi. Qizig'i shundaki, bunga dadam sabab bo'lgan ekan. Buni men imtihon olgan ozg'in, nimjon domlaning auditoriyaga kirishim bilan bir imtihon qog'ozimga, bir yuzimga tikilib: "Salim Karimovich sizning kimingiz bo'ladi?" degan savolidanoq tushundim. Bir daqiqa hushimni yo'qotib, dovdirab qoldim, lekin shu zahotiyoy miyamda bir narsa "yarq" etib, cholning maqsadini ham, istehzoli jilmayishini ham - hammasini yoritib yubordi. Ayni zamonda yuragimdagi qo'rquv ham qayoqqadir yo'qoldi. Xayolimdan: "qulatsa qulatar!" degan fikr o'tdi, bu fikr ko'nglimda qandaydir sho'xlik aralash bir jasorat uyg'otdi-yu, dadillik bilan:

- Hech kimim! - deb javob berdim cholga.

- Nima? - dedi u pastdan yuqoriga qarab.

- Hech kimim! - takrorladim men, - umuman... javobimga qarab baho qo'yaverasiz, men sizdan yengillik so'ramayman!..

Cholning ajin qoplagan uzunchoq yuziga birdan muloyim nur tushib, ko'zlarida iliq tabassum jilvalandi.

- Marhamat, oling! - dedi u, o'yinchoq, yog'och kurakchaga o'xshagan kichkina kaftini stoldagi biletarga cho'zib.

Men qo'limga tekkan birinchi biletini oldim va odatdagidek savollarni o'qib ham turmasdan, derazaning yoniga o'tib o'tirdim. O'tirishim bilan komissiyaning ikkinchi a'zosi ham kirdi. Bu - qishloq ayollariga o'xshab ketgan, soddagina kiyingan novcha, semiz bir xotin edi.

- Xo'sh, nechanchi bilet? - dedi chol allaqanday xushchaqchaq ovoz bilan.

- O'n to'rtinchi.

Menga uchta savol - NKjyuton binomining yechilmasi, kesik konusning hajmi (echimi bilan) va bitta misol chiqqan edi. Bilganda qiyin savol ham oson bo'lib ko'rinadi kishiga. Bu uchta savol, aslida xiyla murakkab bo'lsa ham, juda oson tuyuldi. Buning ustiga chol ham boyagi gaplardan keyin menga tez-tez qarab jilmayib qo'yar, go'yo ko'nglimda dalda berardi. Bu ham sabab bo'ldi-yu, birinchi bo'lib qo'l ko'tardim.

- Marhamat! - dedi chol va kafti bilan stolni "shap" etib urib, ro'parasidan joy ko'rsatdi. - Qulog'im sizda, yaxshi yigit.

U xuddi yoqimli kuyni eshitishga hozirlangandek, kichkina nimjon gavdasini orqaga, kreslning suyanchig'iga tashlab, ko'zlarini shiftga tikdi. So'ngra to men javob berib bo'lgunimcha vaziyatini o'zgartirmadi, faqat ba'zi ba'zidagina qo'lini stolga tashlab, uzun ingichka barmoqlari bilan uni chertib qo'yar, lekin shunda ham javobim unga yoqyaptimi, yo'qmi - bilib bo'lmas edi.

Imtihon topshirayotganda o'z javobining domlaga qanday ta'sir etayotganini bilmasa juda qiynalib ketadi kishi. Bir-ikki marta yer ostidan cholning yonidagi ayolga ko'z tashladim, lekin uning go'yo yarmi cho'rt kesib tashlangandek kalta burunli semiz yuzidan bir nimani bilib olish qiyin edi. Nihoyat bor gapimni aytib bo'ldim. Chol vaziyatini o'zgartirmasdan:

- Savolingiz yo'qmi? - dedi aftidan ayolga murojaat etib.

Ayol istar-istamas labini qimirlatdi:

- Yo'q.

- Uch! - dedi chol, birdan o'zini oldinga tashlab va ko'kragi bilan stolga suyanib. Uning sal qisilgan kichkina ko'zlarida, yupqa lablarida tabassum o'ynagani uchunmi, bilmadim, hech cho'chimasdan:

- Nega endi uch bo'lar ekan? - deb so'radim.

- Negaki, moliga qarab pul to'laymiz-da, yaxshi yigit! - dedi chol barmoqlari bilan stolni asabiy taqillatib. Bu safar sovuq bir titroq a'zoyi badanimni jimirlatib o'tdi.

- Qo'shimcha savol bering! - dedim, dedim-u, ovozingning birdan qandaydir o'zgarib bo'g'iq eshutilganini payqab qoldim.

- Qo'shimcha savol deng? Hm... - dedi chol, - xo'sh... hmm... qani arifmetik progressiyaning formulasini yozib bering-chi!..

Qo'llarim negadir titrar edi. Nega? Axir arifmetik progressiya formulasi esimda turibdi-u! Men qing'ir-qiyshiq raqamlarni tez yozib ko'rsatdim.

Chol to'satdan qah-qah urib kuldi:

- Ikki! - dedi u va ro'molchasi bilan ko'zlarini artarkan, qo'shimcha qildi:

- Qani, bo'lmasa geometrik progressiyaning formulasini yozing-chi, ko'raylik!

Qog'ozni oldimga surdim va cholning kulgisiga darhol tushundim: boya hayajon ustida arifmetik progressiya formulasi o'rniga geometrik progressiya formulasini yozib yuborgan ekanman.

- Kechirasiz, - dedim, - bu...

- Ikki! - dedi chol. U hamon ko'kragini stolga tirab, ko'zlarimga jilmayib boqardi...

Yo'lakda meni Muqaddas kutib turardi. Hozir u bilan ajrashishimga, qayta ko'rishmaydigan bo'lib, bir umr ajrashishimga aqlim yetib turardi. Lekin ko'zlarimga tikilib, nimagadir jilmayib o'tirgan bu chol... Shartta o'rnimdan turdim:

- Istagan bahongizni qo'ying!

Chol yana qah-qah urib kulib yubordi.

- Yasha! O'g'il bola ekansan! - dedi u va imtihon qog'oziga tez qo'l qo'yib, yonidagi ayolga berdi, ayol ham kulimsiraganicha qo'l qo'ydi-da, menga uzatdi. Birdan a'zoyi badanimda kuchli charchoq his etib, bo'shshib, tashqariga tomon yurdim. Eshikka yaqinlashib qolganimga, auditoriyaga Muqaddas kirdi. Aftidan, rangim o'chib, allanechuk bir holatda bo'lsam kerak, uning ko'zlari katta-katta ochilib: "Sizga nima bo'ldi?" degan ifoda paydo bo'ldi, lekin to'xtab unga javob beradigan payt emas edi. U ko'zlarida shu savol bilan yonimdan o'tib ketdi. Men tashqariga chiqdim.

Domla men o'ylagandek "ikki" emas, "uch" qo'yganini yo'lakka chiqqanimdagina bildim. Lekin oldingi "besh" oldida bu "uch" ko'zimga juda xunuk ko'rindi shekilli, ko'nglimni g'ash qildi...

Muqaddas yarim soatlarda chiqdi. U eshikda ko'rinishi bilanoq ko'zlari bilan meni izlab topdi, atrofini qurshab olgan dugonalariga allaqanday asabiy ovoz bilan "to'rt-to'rt!" deb javob berganicha to'ppa-to'g'ri oldimga keldi. Qoshlari sal chimirilgan, ko'zlari nimadandir qo'rqqan kiyikning ko'zlariga o'xshardi.

- Voy, sizga nima bo'ldi?

- Nima bo'lardi, uch oldim! - dedim men. Muqaddasga birov meni "ikki" oldi degan bo'lsa kerak, "xayriyat" degandek chuqur nafas olib entikdi, yuziga qon yugurdi. - Xafamisiz? - dedi u, ko'zlarimga tikilib, dedi-yu, boshini egib sekin qo'shimcha qildi. - Men sizga javr qildim...

Ro'paramda boshini quyi solib turishidan, ovozidan, jovdiragan ko'zlaridan meni deb iztirob chekayotganini bilishning o'zi bir olam quvonch, bir olam baxt edi.

- Nimaga xafa bo'lar ekanman! Bitta uchning zarari yo'q...

Muqaddas "yalt" etib yuzimga qaradi, boshini tez-tez silkitib tasdiqladi:

- Rost, rost, bitta uchdan qo'rqmasangiz ham bo'ladi. Lekin bu yog'iga ehtiyot bo'ling. Endi men ham sizga javr qilmayman, - dedi u yana gunohkorona jilmayib.

Ko'chaga chiqib xayrlashayotganimizda Muqaddasdan yana birga dars tayyorlashni iltimos qildim. Muqaddas bu safar ham ko'nmadi. Lekin shunga qaramasdan ko'nglim negadir tinch edi. O'sha kuni menga Muqaddasning qalbida ham yaxshi bir his uyg'onayotganga o'xshab ko'ringandi.

- "Bu haqiqatmi, yo amalga oshmaydigan bir shirin xayolmi?"

Buning xayol emas, haqiqatga yaqin bir narsa ekaniga inshodan imtihon bergan kunimiz ishondim.

Inshoni birinchi qavatdagi o'n oltinchi auditoriyada bir necha grupp birlashib yozishi kerak edi. Men kirganda, auditoriya odamga to'lib qolgan, faqat eng oldinda, domlalar o'tiradigan joyning qarshisidagina, birinchi stolda bir-ikkita bo'sh joy qolgandi. Lekin auditoriyaga odam hamon yopirilib kirmoqda, jadallashmasam o'sha joydan ham quruq qolishim muqarrar edi. Men Muqaddasni yo'qlashga ham sabrim chidamasdan, o'rtadagi tor yo'lakdan birinchi qatordagi bo'sh stolga intildim. Auditoriyaning yarmiga borib qolgan edim, orqamdan:

- Sharif aka! - degan tanish muloyim ovozni eshitdim. Yuragim "jiz" etib orqamga burildim. Muqaddas mendan ikki qadam narida, auditoriyaning ko'cha tomonidagi stolning chetida o'tirardi. Imtihon degan narsaning naqadar dahshatli ekanini shuning o'zidan ham bilsa bo'ladi, jonimdan ortiq ko'rgan qizning yonidan o'tibman-u, uni ko'rman!

U qo'lini bermasdan faqat ko'zlari bilan salomlashdi.

- Bitta bo'sh joy bor, xohlasangiz o'tiring, - dedi u sekin, go'yo yonidagi qizlarning eshitib qolishidan qo'rqqandek. O'zi esa mening "xo'p" deyishimni kutmasdanoq surilib yonidan joy berdi.

Butun vujudim bilan lovillab yoniga o'tirdim, boshqalarga bildirmasdan qo'lini olib sekin siqdim.

- Siz qaysi temani yozmoqchisiz? - dedi Muqaddas.

- Qaysi tema tushishini bilasizmi?

Muqaddas kuldi.

- Qo'rqmaysizmi?

- Yo'q, - dedim, "Siz yonimda ekansiz hech narsadan qo'rqmayman" degan fikr ko'nglimdan o'tdi, buni unga aytmoqchi ham bo'lib og'iz juftladim-u, jur'at etmadim. Uning chehrasidagi poklik, beg'ubor qizlik iffati, ham tortinib, ham sevinib gapirishlari kishini qandaydir soflikka, samimiylikka undardi.

Qalbmida yana bahor edi. Ko'nglimdagi boyagi vahima u yoqda tursin, imtihon topshirgani kelganimni ham unutayozgan edim. Shu topda faqat bir narsani - Muqaddasning yaqinligini, goho-goho muloyim qarab qo'yishlarini, uyalganidan sochlarini o'ynab,

jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi.

- Voy, turing, domlalar kelishyapti! - dedi Muqaddas.

Shoshib o'rnimdan turdim. Auditoriyaga bir emas, birdan uch domla kirgan edi. Ari uyasidek g'uvillab turgan auditoriya birdan suv quygandek jimjit bo'lib qoldi. Atrofimga qarab qiz-yigitlarning hayajonlangan yuzlarini ko'rdim. Hamma birdan xuddi buyruq kutayotgan soldatlardek jim bo'lib, serrayib qolgan edi.

Ikki assistent auditoriyani oralab "hujjatlar"imizni tekshirib chiqqanlaridan keyin, ularni boshlab kirgan o'rta bo'yli, uzun do'ng burniga oltin ko'zoynak qo'ndirib olgan mo'ysafid domla butun devorni qoplagan katta doskaga temalarni yozishga kirishdi.

Birinchi tema Yo'lchi bilan Gulnor obrazlari edi. "Obraz" degan so'zni yoqtirmasam ham domla boshqa temalarni yozib tamom qilmasdanoq birinchisini tanlab oldim.

"Qutlug' qon"ni yoshligimdan sevar edim, menga Yo'lchi ham, Gulnor ham juda yoqar, Gulnorday bir qizni sevishni orzu qilib yurardim. Hozir esa mening Gulnorim yonimda o'tirardi. Men yozganlarimning darslik talablariga qanchalik javob berishini bilmayman, lekin Yo'lchi bilan Gulnorga bo'lgan samimiy munosabatimni, hurmat va muhabbatimni qog'ozga tushirishga astoydil harakat qildim. Qog'ozga Gulnor bilan Yo'lchining nomlarini yozardim, aslida esa o'z muhabbatimni hikoya qilardim.

Inshoni shunday samimiy, shunday zo'r hayajon bilan yozar edimki, hamma narsani, hatto o'tirgan joyimni ham esimdan chiqarayozgan edim. Faqat bir marta xayolim bo'lindi - auditoriyaga tanish yosh domlarning kirib kelganini ko'rib qoldim. U birinchi stolning orqasida oltin ko'zoynagini chaqnatib o'tirgan kekxa domlarning qulog'iga nimanidir shivirladi. O'zi domlaga gap uqtirar edi-yu, ko'zlari Muqaddasda edi.... Auditoriyadan qaytib chiqib ketarkan, nazarimda menga ham bir qarab qo'ygandek bo'ldi. Ko'nglimdan: "O'zi tilchi emas-ku, bu yerda nima qilib yuribdi?" degan gap o'tdi va yana tunov kungidek yuragim "shuv" etib ketdi. Uning kirganini Muqaddas ham payqamadimikin, deb yer ostidan ko'z tashladim. U payqamagan bo'lsa kerak, boshini chap tomonga egib, yozish bilan band edi...

Muqaddas "Shohi so'zana"ni tanlagan edi... Biz ikkimiz "churq" etib og'iz ochmas, har birimiz o'z ishimiz bilan band edik. Faqat bir marta - yozganlarimni oqqa ko'chirishga kirishganimda, uning "sevgisini" emas, "sevgisining" deb yozing, "ni" emas "ning" deb shipshiganini eshitib qoldim.

Biz ikkimiz baravar yozib tugatdik, lekin Muqaddas yozganlarini qayta-qayta o'qir, nimanidir tuzatar edi. U hamma qizlardek eng so'nggi minutgacha topshirmasligini bildim-da, sabrim chidamasdan, oldinroq topshirib chiqib ketdim.

Muqaddas mendan ancha keyin chiqdi. U odatdagidek yayrab-quvnaq emas, allaqanday bo'shshib chiqdi, go'yo men oldindan bilishim mumkindek:

- Besh olamizmi, yo'qmi? Siz nima deysiz? - deb so'radi yuzimga tikilib.

Karomat qilishni bilmasligimni aytib kuldim.

- Men endi to bahomizni eshitmagunimizcha sira tinchimayman, uyqum ham kelmaydi, - dedi Muqaddas va qoshlarini sal chimirib o'ychan ovoz bilan qo'shimcha qildi:

- Endi eng qiyini qoldi. Nima bo'lsa ham tezroq tamom bo'lib qo'ya qolsa edi!

- Qo'rqsangiz birga tayyorlay qolaylik! - dedim uning ko'zlariga tikilib.

- Siz ximiyani yaxshi bilasizmi? - so'radi u.

- Yaxshi bilaman. Ishonmasangiz birga tayyorlanaylik. O'zingiz...

- Yo'q, ishonaman, - dedi Muqaddas va bir sekund ikkilanib turgach:

- Qaerda tayyorlanamiz? - deb so'radi.

- Siz qaerni xohlasangiz o'sha yerda... Agar xohlasangiz...

Muqaddas yuzimga savol nazari bilan tikilib turardi.

- Agar xohlasangiz biz tomonlarga boramiz, - dedim men va shoshib qo'shimcha qildim: uyda emas, biz tomonlarda juda yaxshi joylar bor. Juda ajoyib, salqin...

- Siz qaerda turasiz?

- Shunday ko'lning orqasida. Mayda-chuyda olib chiqib ketsak... Ertalabdan kechqurungacha o'qib kelamiz. Hech kim xalaqit bermaydi.

Muqaddas yerga tikilib turardi. Bu safar u yo'lakda yurgan qiz-yigitlardan tortinmas, yo xayoli boshqa yoqda bo'lib, ularni payqamas edi. U yana barmoqlariga tikilib o'ylanib qoldi. Uning qattiq ikkilanayotganini yana bir nafas kutsam:

"Yo'q, borolmayman", deb javob berishini payqadim va to'satdan kutilmagan bir jur'at bilan qo'lini ushladim:

- Nimaga bunaqa qilasiz? Yo menga ishonmaysizmi? - dedim.

Ovozim titrab ketdi.

Muqaddas hayron bo'lib yuzimga qaradi.

- Ishonmasam shunday qilarmidim?- dedi u sekin.

- Ishonsangiz nega...

- Xo'p, mayli, boraman, - dedi Muqaddas; to'satdan boshini keskin silkitib, - lekin ertaroq chiqib ketaylik!

Biz ertasiga ertalab soat sakkizda ko'lning oldida, pochtaning yonida uchrashadigan bo'ldik.

"Ertaga ko'nglimda bor gapni unga ochiq aytaman! Payti keldi!" - shu qaror bilan uyga ketdim.

Ertasiga uchrashmoqchi bo'lgan joyimizga juda barvaqt bormoqchi edim, lekin uydan endi chiqaman, deb turganimda to'satdan dadam chaqirib qoldi, kecha inshoni qanday yozganim to'g'risida so'roq qila boshladi.

Salim Karimovichning maqsadiga tushunib turardim. U ishning oldini olmoqchi edi, chunki fizikani uchga topshirganimdan buyon uyda yana janjal va tashvish ko'payib ketgandi. Lekin shunga qaramasdan, uning savollari g'ashimga tegardi. Nazarimda, u qayoqqa shoshayotganimni bilar va jo'rttaga ushlab turgandek tuyulardi. Nihoyat sabr kosam to'lib ketdi. "Men hozir..." "B" dedim-u, Salim Karimovichning bir nima deb chaqirganiga ham quloq solmasdan tashqariga otildim, darvozadan chiqishim bilan xuddi qafasdan qutulgan qushdek avtobusga qarab yugurdim.

Ahdlashgan joyimizga o'z vaqtida yetib bordim. Muqaddas esa chorak soat kechikib keldi. U mahalda hamma qizlar ham bunaqa uchrashuvlarga kechikib kelishlarini, jindek kuttirib qo'yishni yaxshi ko'rishlarini bilmas edim, shuning uchun ham bu chorak soat menga chorak asrga o'xshab ko'rindi. Gap Muqaddasni kutib qolishimda emas, ablatta, hamma dahshat shunda ediki, men uni kelib ketib qolgan, deb xavfsirardim. Endi uni ko'ra olmas ekanman-da, deb ichimda dadamdan astoydil xafa bo'lib turganimda,

orqamdan kimningdir:

- Sharifjonmisan? - degan do'rildoq ovozi eshitib, cho'chib o'g'irildim.

Oldimda aylanasiga g'isht terilgan chor burchak gulzorning yonida Sulaymon aka turardi. Uni bu yerda uchratishni sira kutmaganimdan bo'lsa kerak, o'g'irlik ustida tutilgan odamdek dovdirab qoldim, hatto qo'l berib ko'rishishni ham esimdan chiqarib qo'ydim. O'zim ham qizarib-bo'zarib, terlab ketdim shekilli, Sulaymon aka qop-qora shop mo'ylovi ostidan kulimsiradi-da, tomirlari bo'rtib chiqqan katta suyakdor kaftini uzatib:

- Yasan-tusanlar joyida-yu, kimni kutib turibsan, o'g'lim, - deb so'radi.

Uning "o'g'lim" deyishi har vaqtdagidek qulog'imga juda issiq eshitildi-yu, bu odamdan yashirib yurgan va uch-to'rt kundan beri yodimdan ko'tarilgan butun ishim esimga tushib ketdi...

- Tunov kungi savolimizga javob bermading-ku? - dedi Sulaymon aka. - Sirtidan o'qiganing tuzuk emasmi? Yo zavodlan ketging bormi?

Men ko'zimni uning yuzidan uzib, tramvay keladigan tomonga qaradim: Muqaddas o'sha yoqdan kelishi kerak edi.

- Oying xohlamadimi? - dedi Sulaymon aka. Uning yuziga qaray olmadim, yerga tikildim. Yuragim gup-gup urardi, yuzim, quloqlarim lovillab yonayotganini sezardim, lekin nima deb javob berishimni bilmas edi. Zotan otamning eng qardond do'sti bo'lgan, meni o'z bag'riga olib, yaxshigina hunar o'rgatgan, nihoyat o'z o'g'lidek yaxshi ko'rgan bu mo'ysafidga nima ham derdim? Unga faqat haqiqatni aytishim mumkin edi. Lekin bo'lib o'tgan shuncha voqeadan so'ng, hozir Muqaddasni kutib turganimda, unga haqiqatni aytishim mumkinmidi?

Sulaymon aka mening sukutimni tasdiq alomati deb bildi shekilli, bir zum turgach:

- Ha, sizga nima bo'ldi? - degan tanish ovozi eshitganimga hushimga keldim.

- A? - dedim tomirlarimga issiq qon yugurib. Nazarimda birdan ko'z oldimni to'sib kelgan qora bulut tarqab, hammayoq nurga cho'milgandek tuyuldi.

- Chaqirsam ham qaramaysiz? - dedi Muqaddas. U allaqanday ma'yus qop-qora ko'zlari bilan yuzimga o'ychan tikilib turardi.

Bu safar uning egnida birinchi marta ko'rganimga oq shoyi ko'ylak, boshida o'sha tagdo'zi do'ppi edi, lekin o'zi ko'zimga qandaydir g'amgin ko'rindi.

- Yuring, narigi tomonga o'taylik, avtobusga chiqamiz, - dedim men.

- Avtobusda boriladimi? - dedi Muqaddas va yana yuzimga tikilib, - uzoq emasmi? - deb so'radi.

Menga shunday tuyuldi, go'yo u avtobusga chiqqisi kelmas, nimadandir tortinar edi.

- Yo'q-yo'q, - dedim, - uzoq emas, birpasda yetib boramiz. Bo'zuvning bo'yida. Shunday salqin, shunday yaxshi joylarki... Yuring.

Nimagadir shoshar edim, shoshayotganimni, Muqaddasning oldida o'zimni xuddi yosh boladek tutayotganimni sezib turardim-u, lekin baribir, o'zimni bosib ololmas edim. Qizig'i shundaki, hozirgina Sulaymon akani ko'rganda ko'nglimni g'ash qilgan notinch o'ylar ham har safargidek Muqaddasni ko'rishim bilan darrov yo'qolgan, hammasi quvonchli hayajon bilan almashgan edi.

Biz katta ko'chadan g'izillab uchib o'tayotgan yengil mashinalarga yo'l bera-bera, ro'paradagi avtobus to'xtaydigan joyga o'tib oldik.

Kun chiqish tomondagi to'rt qavatli bino ustidan ko'tarilgan quyosh ko'chalarni nur seliga ko'mib yuborgan, odamlar o'zlarini daraxtlarning soyasiga ura boshlagan edilar.

Muqaddas bugun nimagadir ma'yus va kamgap, u qandaydir o'z o'ylari bilan band edi. U bilan gaplashgim kelar, lekin gapni nimadan boshlashimni bilmasdim, sukutning cho'zilib ketganidan xijolat chekardim. Buning ustiga avtobus ham kechikmoqda edi. Nazarimda, Muqaddas avtobus kutishdan zerikib, to'satdan aynib qoladigandek tuyular, avtobus chiqib keladigan muyulishdan ko'zimni uzolmas edim.

Nihoyat avtobus ham keldi. Odam ko'p bo'lishiga qaramay, bir amallab chiqib oldik. Muqaddas orqadagi bir joyga ilindi, men uning yonida tippa-tik turardim. Biz hamon gaplashmas edik, mashina yurib, ko'lning orqasidagi birinchi ko'priikka yetgandagina, Muqaddas:

- Hali uzoqmi? - deb sekin so'radi.

- Yo'q, uzoq emas, - dedim unga.

Muqaddas indamasdan o'ychanlik cho'kkan allaqanday g'amgin ko'zlarini yana derazaga tikdi. AsfalKjt yo'lning yonginasida, chuqur jarlikning tagida, ko'm-ko'k shishadek tiniq Bo'zuv oqardi, jarlikning ikkinchi tomonida, balandlikda, bir-biriga qo'shilib ketgan yam-yashil bog'lar tutash bir o'rmonzor kashf etardi.

Avtobus ikkinchi ko'prikdan o'tib to'xtaganda Muqaddas: "Haliyam kelmadikmi?" degan ma'noda menga bir qarab qo'ydi. Men o'zimni ko'rib ko'rmaganlikka soldim, Muqaddasning yonida o'tirgan chol o'rmidan turgan edi, uning joyiga o'tirdim.

- Nimaga bunday xafa ko'rinasiz? Tinchlikmi? - dedim sekin.

- Yo'q, o'zim... - dedi Muqaddas va to'satdan o'rmidan turib, avtobusning oldiga o'ta boshladi.

Bir daqiqa o'zimni yo'qotib qo'ydim, so'ng sekin yurib orqasidan bordim.

- Men tushaman, - dedi Muqaddas. U yuzimga qaramas edi.

- Nega, yana bir ostanovka...

- Kerakmas!.. - Bu safar Muqaddasning ovozi qattiqroq eshitildi.

Undan "nimaga bunday qilyapsiz?" - deb so'ramoqchi bo'ldim-u, to'satdan avtobusdagilarning hammasi bizga tikilib turganligini, hammaning diqqat-e'tibori bizda ekanini ko'rib, gapim og'zimda qoldi.

Mashina to'xtashi bilan Muqaddas go'yo uni birov ushlab qoladigandek, avtobusdan birinchi bo'lib sakrab tushib ketdi.

Men oldin unga achchiq qilib tushmay o'tib ketavermoqchi bo'ldim-u, lekin chidab turolmay avtobusdan sekin tushdim - O'z irodamdan zo'r bir kuch uning orqasidan meni ham mashinadan sudrab tushirdi.

Muqaddas jarlikning bo'yida, sekin oqayotgan Bo'zuvga o'ychan tikilib turardi. Uning yoniga kelib to'xtadim.

- Nimaga bunday qildingiz? - dedim hayajonimni zo'rg'a bosib.

- Bormayman, - dedi Muqaddas.

- Nega? Sababi...

- Sababini nima qilaysiz? Bormayman dedimmi - bormayman!

Bu safar uning ovozi qandaydir juda keskin jarangladi. Bu keskinlik ko'nglimga juda qattiq tegdi-yu, kutilmagan joyda mendagi jur'atsizlikka barham berdi.

- Siz.. yomon joylarga boshlab ketyapti - deb o'yladingiz chamas! - dedim, qattiq gapirayotganimni sezib va nimagadir bundan

sevinib, - meni yomon maqsadda boshlab ketyapti, - deb o'ylaganga o'xshaysiz! Siz meni kim deb o'yladingiz? Nahotki men shunchalik borsam?

Shunday samimiy gapirganim uchunmi, yo aytgan so'zlarim qattiq ta'sir qildimi, bilmadim Muqaddas qandaydir tez o'zgardi, yuzidagi sovuq ifoda bir zumda muloyim tabassum bilan almashdi.

- Yo'q, unaqa emas, unaqa deb o'ylaganim yo'q, - dedi u yerga qarab: - shunchaki... Yuring, skverdagi parkka bora qolaylik! - to'satdan taklif qildi Muqaddas va qandaydir sho'x porlagan qora ko'zlarini o'ynatib kulib qaradi. - Ana, mashina ham kelyapti! Xo'p deya qoling, Sharif aka!

Muqaddas mendan kulardi, albatta! U mening "xo'p" demasdan ilojim yo'qligini, uning har qanaqa talabini bajarishligimni bilardi-yu, tag'in mendan najot so'rardi!.. Sho'x ko'zlarini o'ynatib, oq ko'ngil va pok qizlardagina bo'ladigan beg'ubor bir noz bilan jilmayib, o'zining "g'olib" kelishini bilib turib, yana ijozat so'rardi!

"Bu qiz oldida o'zimni juda yerga urib yubordim, chamasi. Menda na yigitlik izzat-nafsi, na g'urur, na iroda qoldi" - deb o'yladim ichimda. Buni o'zim ham seza boshlagan edim. Lekin unga qarshi chiqishga kuchim yetmas edi. Bu safar ham yana taslim bo'ldim. Ko'nglimda uyg'ongan g'azab va alam uning "xo'p deya qoling", deb bir kulib boqishidayoq tarqab ketdi, lekin uning yana shunday kulib boqishi va shunday iliq so'zlarini eshitgim kelgani uchun bo'lsa kerak, avtobusda ketayotganimizda atayin qovog'imni solib oldim. Muqaddas bir-ikki marta yer ostidan menga kulimsirab qarab qo'ydi. Lekin buni ko'rib ko'rmaganlikka soldim.

Muqaddas meni astoydil xafa bo'ldi - deb o'yladi shekilli, xiyobonning yoniga kelib avtobusdan tushganimizda yuzimga allaqanday gunohkorona tikilib:

- Men sizga ishonmaganim uchun emas, shunchaki... O'zingiz bir o'ylab ko'ring: yaxshi emasda - dedi va qizarib qo'shimcha qildi: - Qo'ying endi, shunaqa qilmang!

Soya joyga nur tushgandek ko'nglim birdan yorishib ketdi:

- Nima qildim?

- Shunaqa... Biram qovog'ingizni solib oldingiz-ki!..

Ikkimiz baravar kulib yubordik, oramizda g'ov bo'lib turgan noma'lum to'siq ham ko'tarildi-da, go'yo bir-birimizga yana ham yaqinroq bo'lib qoldik.

Xiyobonda odam ko'p edi, institutga kirish imtihonlarini topshirayotgan yosh-yalanglarning hammasi go'yo boshqa yerdan joy topolmagandek shu yerga kelgan, ular xiyobonning eng xilvat burchaklarigacha egallab olgan edilar. Qizil qum sepilgan alleyalarning o'rtasidan o'tarkanmiz, skameykalarda o'tirgan yigitlarning bizga tikilib qarab qolayotganlarini ko'rdim, bir vaqtning o'zida ham g'azabim qo'zg'ar, ham nimagadir faxrlanardim. Muqaddas esa uyalganidan yuzlari gul-gul yonib, yana ham jozibali ko'rinar, u ko'zlarini yerga tikib borgan sayin jadallab borar va tekis yerda ham hadeb qoqilar edi.

Nihoyat xiyobonni bir aylanib, qaytib chiqayotganimizda, eshikka yaqin joydagi estrada teatrining orqasida bitta bo'sh skameykani ko'rib qoldik.

Muqaddas xuddi uni bizdan burun boshqalar egallab olishidan qo'rqqandek, chopib borib o'tirib oldi.

Skameykaning ikki yonida ikki tup ko'k terak qad ko'targan, lekin uning soyasi quyuq emas, yaproqlari orasidan sirg'anib o'tgan nurlar xuddi shoyi quroqlardek parcha-parcha bo'lib yerga tushib turardi. Skameykaning oldiga sepilgan qizil qum ham qo'g'irmochdek qizib ketgan edi. Lekin Muqaddas o'tirgan hamon:

- Yaxshi joy ekan-a? Hech kim xalaqit bermaydi! - dedi-da, nimagadir o'z-o'zidan quvonib tevarak-atrofga bir qarab qo'ydi. - To'g'rimi?

- To'g'ri, - dedim. Uning "Hech kim xalaqit bermaydi" degan so'zlari qulog'imga juda issiq eshitilgan, o'rtamizni bo'lib turgan masofa go'yo yana bir-ikki qadam qisqargandi.

Muqaddas qo'lga ximiya darsligini oldi.

- Bo'ldi! Endi kim gapirsa ham...

- Kinoga bilet olsin! - dedim men. Muqaddas "juda mug'ombirsiz-a?" degan ma'noda bir qarab qo'ydi-yu, indamasdan o'qishga kirishdi. Men uning nimadan boshlashni so'rab ham o'tirmasdan kitobning to'g'ri kelgan joyidan sharillatib o'qib ketganidan sal o'tmasdanoq to'xtashini sezib, yon tomondan qaraganda juda nafis ko'ringan mayin qoshiga, jimir-jimir terlagan peshonasidagi soch to'plariga tikilib, ko'nglim allaqanday nurga, baxtga to'liq o'tirardim, lekin qulog'imga hech narsa kirmas edi.

To'satdan, xuddi men o'ylaganday Muqaddas o'qishdan to'xtadi, go'yo bu kitobni sira qo'lga qaytib olmaydigandek, chetga otib:

- Siz qo'rqyapsizmi? - deb so'radi.

- Yo'q, - dedim, - nimadan qo'rqaman?

- Men shunday qo'rqyapman, qo'rqyapman, shunday qo'rqyapmanki, qo'limga kitob olgim kelmay qoldi! - dedi Muqaddas va har safargidek birdan o'ychanlik cho'kib, ma'yus bo'lib qolgan ko'zlarini bir nuqtaga tikib, keyin qo'shimcha qildi:

- O'qishga kirolmay qolishimdan emas, sharmanda bo'lib uyga qaytib borishdan qo'rqaman... Rostini aytсам dadamni xafa qilishdan qo'rqaman, - dedi Muqaddas, so'ngra gap o'z-o'zidan Bekobodga, ularning oilasiga o'tib ketib qoldi...

Muqaddasning onasi o'zini bolalariga fido qilib, faqat ularning baxtini o'ylab, uyida o'tirib qolgan sodda ayollardan ekan, otasi zavodda master bo'lib ishlarkan. Lekin u kishi masterlikka o'qish, ilm orqali emas, peshona teri to'kib, mehnat bilan erishgan odamlardan ekan. Ularning juda ko'p farzandlari bo'lgan, lekin hozir faqat Muqaddas bilan uning ukasi qolgan, ikkita akasi urushda halok bo'lgan, hozir Muqaddas bu oilaning eng katta farzandi ekan. Shuning uchunmi, yoki otasi o'zi o'qiy olmasdan ko'p zahmat chekkani uchunmi, ishqilib, ko'pdan beri Muqaddasni o'qitib, muhandis qilish orzusi ko'ngliga qattiq o'rnashib qolgan ekan. Uylariga mehmonlar kelganda, do'stlari bilan chaqchaqlashib o'tirgan chog'larida dadasi hamisha qizini chaqirib, ularga ko'rsatar, yaxshi o'qishini aytib maqtar va qizim albatta injener bo'ladi, - deb o'zi ham faxrlanib qo'yarkan.

Bizning taqdirimizdagi bu kutilmagan o'xshashlik meni ham taajjubga solib qo'ygan, ham qattiq quvontirgan edi.

Muqaddasning ota-onasi to'g'risidagi qizlarga xos boshqacha bir mehr-muhabbat bilan qilgan hikoyasini tinglarkanman, ularni hech qachon ko'rmagan bo'lsam ham, nazarimda qaerdadir uchratgandek, biladigandek tuyular, go'yo ularni ko'pdan beri taniyman, yaxshi ko'raman. Ko'nglimda halitdanoq ularga nisbatan qandaydir bir farzandlik tuyg'usi uyg'ongan, ularga bir yaxshilik qilish istagi tug'ilgan edi. Menga negadir ayniqsa uning dadasi yoqib qolgan edi. Ko'nglimda go'yo u menga mehribon bir ota bo'lishiga, men esam frontda halok bo'lib ketgan o'z padarimni, topib olishimga ishonch uyg'ongan edi...

Muqaddasning onasi o'zini bolalariga fido qilib, faqat ularning baxtini o'ylab, uyida o'tirib qolgan sodda ayollardan ekan, otasi zavodda master bo'lib ishlarkan. Lekin u kishi masterlikka o'qish, ilm orqali emas, peshona teri to'kib, mehnat bilan erishgan odamlardan ekan. Ularning juda ko'p farzandlari bo'lgan, lekin hozir faqat Muqaddas bilan uning ukasi qolgan, ikkita akasi

urushda halok bo'lgan, hozir Muqaddas bu oilaning eng katta farzandi ekan. Shuning uchunmi, yoki otasi o'zi o'qiy olmasdan ko'p zahmat chekkani uchunmi, ishqilib, ko'pdan beri Muqaddasni o'qitib, muhandis qilish orzusi ko'ngliga qattiq o'rnashib qolgan ekan. Uylariga mehmonlar kelganda, do'stlari bilan chaqchaqlashib o'tirgan chog'larida dadasi hamisha qizini chaqirib, ularga ko'rsatar, yaxshi o'qishini aytib maqtar va qizim albatta injener bo'ladi, - deb o'zi ham faxrlanib qo'yarkan.

Bizning taqdirimizdagi bu kutilmagan o'xshashlik meni ham taajjubga solib qo'ygan, ham qattiq quvontirgan edi.

Muqaddasning ota-onasi to'g'risidagi qizlarga xos boshqacha bir mehr-muhabbat bilan qilgan hikoyasini tinglarkanman, ularni hech qachon ko'rmagan bo'lsam ham, nazarimda qaerdadir uchratgandek, biladigandek tuyular, go'yo ularni ko'pdan beri taniyman, yaxshi ko'raman. Ko'nglimda halitdanoq ularga nisbatan qandaydir bir farzandlik tuyg'usi uyg'ongan, ularga bir yaxshilik qilish istagi tug'ilgan edi. Menga negadir ayniqsa uning dadasi yoqib qolgan edi. Ko'nglimda go'yo u menga mehribon bir ota bo'lishiga, men esam frontda halok bo'lib ketgan o'z padarimni, topib olishimga ishonch uyg'ongan edi...

Muqaddasning ota-onasi, o'rtoqlari, ona shahri haqida, goh ma'yus, goh quvonchga to'lib aytayotgan hikoyasini eshitarkanman, ko'nglimdagi bu istak-orzular ham gurkirab o'sib borar, yana xayol daryosida suzardim.

Men halitdanoq bir kun emas bir kun Muqaddas bilan birga chamadon ko'tarib Bekobodga borishimizni ko'z oldimga keltira boshlagan edim... Biz shaharning bir chetidagi shaftoli, o'rik va olchalarning quyuq soyasiga ko'milgan shinamgina hovlilariga kirib boramiz... Bizni eshikda chol-kampir kutib oladi. Ko'zlaridagi yoshlarini artib, peshonalarimizdan o'padilar, uzoq umr tilab, duo qiladilar...

- Ie, doim shunaqa qilasiz-a? Hushingiz joyidami o'zi? Yuring!

Uyqudan uyg'ongandek cho'chib ketdim. Kitob-daftarlarini qo'ltiqlab olgan Muqaddas skameykaning oldida menga taajjub bilan qarab turardi.

- Qayoqqa? - dedim.

- Ketamiz...

Muqaddasning qoshlari chimirilgan, ko'zlarida allaqanday bir qat'iyatlik bor edi.

- Nega endi? - dedim hayron bo'lib.

- Qo'ying, birga dars tayyorlay olmas ekanmiz... Men unga boshqa savol bermadim.

Shu topda mening ko'nglimda nimalar bo'lsa, uning ko'nglida ham shunga o'xshash bir narsa bo'layotganini payqagan edim. Faqat uni bir-ikki kun ko'rolmay qolishdan qo'rqib:

- Agar erta-indin bir uchrashsak... - deb gap boshlagan edim, Muqaddas:

- Yo'q, endi imtihonda uchrashamiz, - dedi og'zimdan so'zimni olib.

Biz indamasdan parkdan chiqdik va xayrlashib, ikkimiz ikki tomonga ketdik. Uch-to'rt qadam bosmasdanoq orqamga o'girilib qaradim, xuddi shu payt Muqaddas ham qaradi-da, sadaf tishlarini chaqnatib bir kuldi.

Qanday ajoyib qiz!

To'satdan kechagi qarorimni unutib qo'yganimni, Muqaddasga sevgim to'g'risida bir og'iz aytmaganimni esladim. Esladimu beixtiyor kulib yubordim: unga bu haqda gapirib o'tirishga hojat qolmagan, chunki u ham meni sevishiga endi ishonaversam bo'lardi. Endi oldimda boshqa maqsad turardi. Qanday bo'lmasin o'qishga kirishim kerak edi!

* * *

Nihoyat, bizning taqdirimizni yechadigan so'nggi imtihon ham keldi. Bu safar uning qanday o'tganini, qanday savollar tushganini hikoya qilib o'tirmayman. Buning keragi ham yo'q, faqat shuni aytishim mumkinki, so'nggi imtihondan yana Muqaddas to'rt oldi, men besh olib chiqdim. Bunga Muqaddasning o'zi sabab bo'ldi. O'tgan imtihonda uning o'rniga kirib uch olganim unga juda qattiq tekkan ekan, bu safar mening xohish bildirishimga qaramasdan o'z navbatida kirdi va xuddi oldindan kutgandek, to'rt olib chiqdi. U shunday ruhi tushib, lablari titrab chiqdiki, yiqilibdi degan xayolga borib shoshib qoldim. Lekin "to'rt" olganini eshitib koyib berdim. Yugurishib kelib, qurshab olgan qiz-yigitlar ham uni urisha boshladilar:

- Ikkita to'rtga shuncha xafa bo'lasizmi?

- Siz qo'rqmasangiz ham bo'ladi, o'n sakkiz u yoqda tursin, o'n yetti bal olganlarni ham qabul qilishadi!

- Sizni qarang, men to'rt olsam do'ppimni osmonga otgan bo'lardim!

Bu samimiy gaplar Muqaddasning ko'ngliga taskin berdi shekilli, men imtihonni topshirib chiqqanimda xiyla o'ziga kelib qolgan edi.

- Ana, men nima degan edim? - dedi qoshlarini chimirib va hayajonli ovozda davom etdi.

- Dekanatga chiqdim. Qizlarning gapi rost ekan. O'n sakkiz bal olganlarni qabul qilishimiz aniq deyishdi!

- Endi ko'nglingiz joyiga tushdimi? Muqaddas kuldi.

- Hali insho nima bo'lishini ayting! Domla og'rib qolgan ekanlar. Bugun kelibdilar. Natijasini tushdan keyin eshittirishar emish, - dedi u va qo'lidagi kichkina soatiga ko'z tashlab qo'shimcha qildi:

- Nima bo'lsa ham tezroq eshittirisha qolishsa bo'lardi.

Ko'chaga chiqib bir aylanib kelishni taklif qildim.

Muqaddas bu safar odatdagidek iymanib, tortinib turmadi. Aksincha sevinib ketib: "Limonad ichib kelamiz!" dedi.

Biz ko'chaga chiqdik-da, quyuq soya tushgan xiyobonlardan parkka qarab ketdik. Ko'chada odam ko'p edi. Har qachongidek ular bizga qarab o'tar, ayniqsa yosh yigitlar mening rashkimni keltirib Muqaddasga suqlanib tikilardi. Shu rashkdanmi, yo

Muqaddasning yaqinligidanmi, bilmadim, o'zimni xuddi lovillab yonayotgan gulxanning taptida toblanayotgandek his qilardim, a'zoyi badanimdan lovillab o't chiqib borardi. Muqaddas esa (ajabo!) go'yo hech narsani sezmas, u nimagadir sevinar, hadeb kular, yuzlari gul-gul yashnab, o'tkinchilarning diqqat-e'tiborini yana ham o'ziga tortar edi. Undagi bu sababsiz shodlik asta-sekin menga ham o'tdi-yu, ko'nglimdagi g'ashlikni tarqatib yubordi.

Muqaddasning nimagadir sal rangi o'chdi. U qandaydir taajjub cho'kkan ko'zlarini yuzimdan uzib chetga qaradi.

- Men bugun... soat to'rtida Bekobodga ketmoqchi edim.

- Shunaqami? - dedim, - mayli, yo'lingizdan qolmang...

Ovozim titrab ketdi. Muqaddas yuzimga bir qaradi-yu, boshini keskin silkitdi:

- Yuring!

Biz o'sha parkka, atigi yarim soat oldin xushvaqt bo'lib, o'ynab-kulib chiqib ketgan parkka qaytib keldik. Parkda odam siyrak edi. Odatda bo'sh yotmaydigan xilvat joylardagi skameykalarning ko'pchiligi butunlay bugun kimsasiz bo'lib, institutlarda imtihon

tugab qolganligini ko'rsatib turardi. Biz nimagadir bu xilvat joylarda to'xtamas, to'xtashni na u, na men taklif qilardik. Umuman mendagi boyagi qat'iylik qayoqqadir yo'qolgan, Muqaddasning "yuring" degan keskin gapidan keyin birdan past tushib, jur'atsiz bo'lib qolgan edim. Muqaddas esa mening nima demoqchi ekanimni yaxshi sezsa kerak, institutdan o'zi boshlab chiqqan bo'lsa ham, endi gap ocholmas, og'ziga so'k solgandek, churq etmasdan yerga tikilib borardi.

Parkning eng oxiriga borganda, o'ng qo'ldagi qizil qum sepilgan torgina yo'lining bo'yida chirmoviq bilan qoplangan kichik bir soyabon ko'rindi. Biz unga ko'zimiz tushishi bilan xuddi oldindan ahdlashib qo'ygandek indamasdan baravar burildik...

- Men sizni deb... yolg'iz siz uchun! - dedim nihoyat.

Muqaddasning boshi yana ham pastroq egildi.

- Qo'ying, unaqa demang! - dedi u sekin titroq ovoz bilan.

- Nimaga demas ekanman? Axir men sizni shunchali...

Muqaddas sekin boshini ko'tarib pastdan yuqoriga qaradi. Uning uchlari egilgan uzun kipriklari orasida go'yo gul chanoqlariga qo'ngan shudringdek tiniq yosh tomchilari yaltirab, allaqanday titrab turardi.

- Menga ishonmaysizmi? - dedi u, dedi-yu, lablari xuddi o'ksigan bolaning lablaridek pipirab ucha boshladi, kipriklari orasidagi tiniq tomchilar ko'payib, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi.

- Muqaddas! - dedim uning qo'llaridan ushlab.

- Agar ishonsangiz... bunaqa demang...

Men indamasdan uni o'zimga tortdim, hali o'zimga, baxtinga, uning bo'sa berishga rozi ekaniga ishonmasdan bag'rimga bosdim.

Muqaddas jindek ham qarshilik qilmadi, u go'yo bog'bonga bo'yin eggan yosh niholdek itoatkorlik bilan ko'kragimga boshini qo'ydi...

Bir minutga bu olam, oyoqlarim ostidagi men tug'ilib katta bo'lgan bu yer, tepamdagi bu zangori osmon... hammasi qayoqqadir yo'qoldi-yu, Muqaddas bilan ikkovimizgina tanho qoldik, xolos...

Uning lablari xuddi bahor quyoshini emgan lolani eslatar, lola yaproqlaridek mayin va iliq edi, ularda tog' shabadasi tegib yaproq yozgan chechaklarning ajib tarovatli isi bor edi. Sochlaridan, ajoyib qo'ng'ir sochlaridan rayhon hidi kelardi...

Mana, bir oy bo'ptiki, men shu mas'ud damni, shu bo'sani orzu qilardim: lekin uni qo'msab kechalari uyqu ko'rmay tong ottirgan chog'larimda ham men bu lablarning bunchalik totli bo'lishini bilmagan edim, men bitta bo'sa xuddi chanqoqni qondiradigan bir piyola buloq suvi kabi qalbimdagi butun alam va iztiroblarni bosa oladi deb o'ylamagan edim!.. Ajabo, bitta bo'sa ko'nglimdagi hamma chigallarni yechib tashlagan edi.

Parkdan chiqib Muqaddas bilan birga yana institutga tomon borarkanman, o'zimni asfalKjt ustida emas, go'yo pat gilam ustida yurib ketayotgandek his qilardim, lablarimda hamon lablarining baxmal mayinligini sezardim, dimog'imga urayotgan rayhon hididan boshim aylanardi... Faqat institutga kirganimizda va men eshikda qolib, Muqaddas "bir minutga" qabul komissiyasi joylashgan xonaga chiqib ketganidagina endi men uchun bu binoning eshigi yopilgani esimga tushib, yana yuragim bir qisilib qo'ydi. So'ng oyimga telefon qilmaganimni eslab, eshikdan kirgan joydagi telefon-avtomatga bordim.

Oyimning qo'rqqan, titroq ovozi uzoqdan juda g'alati eshitildi.

- Nima deding? Nimaga uch bo'ladi?

- Nimaga bo'lardi? Yomon yozganim uchun-da! - dedim men ensam qotib.

- Dadangga aytdingmi?

- Nima deyman?

- Darrov ayt! Tentak bo'ldingmi? Senga aytyapman, eshityapsanmi - darrov topib ayt!

- Xo'p!

Yuqoridan Muqaddasning tushib kelayotganini ko'rib trubkani ilib qo'ydim.

"Endi bir qilmagan ishim imtihondan yiqildim,- deb Salim Karimovichga yig'lab borishmi?"

Men uning qanday qilib uch olganimni sinchiklab uzoq surishtirishini, achchig'i chiqib po'ng'illashlarini ko'z oldimga keltirdim.

- "Yo'q, o'lsam ham bormayman!"

Muqaddas kulgisini, quvonchini yashirishga harakat qilar, lekin qirg'oqqa sapchigan toshqindek, shodlik yuziga tepib, ko'zlarida jilvanib turardi.

- O'n sakkiz bal olganlarning kirishi shak-shubhasiz emish! - dedi-da, ko'nglimni ko'tarish uchun bo'lsa kerak: - Aqalli o'n yetti balga ham yetolmadingiz-da!- deya qo'shimcha qildi.

Boyagi igna yuragimga yana bir qadaldi.

U darhol Bekobodga jo'namoqchi ekaninin aytdi, shunday aytdiki, go'yo mendan ijizat so'radi. Men uni kuzatib qo'ymoqchi bo'ldim. U qarshilik bildirmadi. Umuman ilgari kinoga borishga ko'nmay yurgan bu qiz, bugun bitta ham iltimosimni rad etmas, go'yo bu bilan qalbimdagi yaraga malham berardi. Mening esa bunga ham ko'nglim to'lmas edi. Keyinchalik men, Muqaddasning muvaffaqiyati va o'z muvaffaqiyatsizligim o'sha kuni meni qandaydir injiq va xudbin qilib qo'yganini, umuman men o'zimni o'g'il bolalarcha tutmaganimni ko'p marta uyat bilan eslardim. Ammo o'sha vaqtda men buni sezmasdim. Aftidan, xuddi shunday injiqlikning ta'sirida bo'lsa kerak, vokzalda poezd kutib o'tirganimizda, men chiday olmadim-da, bizning munosabatimiz kelajakda qanday bo'lishini bilmoqchi bo'ldim...

- Keyin. Men qaytib kelay, keyin gaplashamiz! - dedi Muqaddas va endi boyagidek yig'lab emas, kulib turib so'radi:

- Bir nimadan shubha qilyapsizmi?

- Yo'q, nega? - dedim duduqlanib.

Muqaddas bir zum jim qolgach:

- Endi nima qilmoqchisiz? - deb so'radi.

- Nima qilardim, ishlayman, - dedim va bu so'zlarim Muqaddasning yuzida qandaydir iliq va shod tabassum uyg'otganini ko'rib qoldim.

- Agar yiqilganimda men ham ishlardim, - dedi Muqaddas nimagadir hayajonlanib, - O'zimizning metall zavodimizga kirib ishlardim. Siz ham zavodga kiring. Bunaqa yurishdan hech bir foyda yo'q...

Men mashinasozlik zavodining bir yillik tajribaga ega ishchisi ekanimni aytmoqchi edim, poezd jo'naydigan bo'lib qoldi. Shoshib xayrlashdik. Muqaddas vagonning zinapoyasiga chiqayotib qulog'imga shipshidi:

- Ikki-uch kunda qaytib kelaman. Yotoqxonaga keling, kutaman. Xo'pmi?

Poezd uzoqlashib, uning shamolda hilpiragan oq shoyi ko'ylagi ko'zdan yo'qolguncha qarab turdim.

Ko'nglim endi mutlaqo tinchigan edi. Quloqlarim tagida "Yotoqxonaga keling. Kutaman..." degan so'zlari takrorlanar va yuragimga allaqanday osoyishta va so'nmas bir shodlik bag'ishlar edi.

Ko'chada, qayoqqa borishimni o'ylab, bir nafas turdim, so'ng birdan qandaydir yengil tortib, quvonch bilan qaror qildim - zavodga!

Zavodni eslashim bilan bo'lib o'tgan hamma voqea qayta esimga tushib, o'zimdan o'zim uyalib ketdim.

Lekin shu zahotiyoyq "shunchalik xijolat bo'ladigan biron jinoyat qildimmi?" - deb o'zimni yupatib qo'ydim, ko'nglim o'sha osoyishta, yorug' quvonchga to'lib, avtobus bilan zavodga jo'nadim.

* * *

Zavodga birinchi smena ishini tugatib, navbatdagi smena ishga tushadigan paytda yetib bordim. Avtobusdan tushib zavodning qizil g'ishtdan qurilgan baland qo'rg'oniga qarab yurganimda, darvozadan ishchilar ham to'p-to'p bo'lib chiqa boshladilar.

O'rtoqlarimni ko'chada kutsam ham bo'lardi-yu, sexni, stanogimni bir ko'rib ketish niyatida ichkariga kirdim.

Darvozadan kiraverishda yarim gektar kelar-kelmas gulzor bor edi. Gulzorning o'rtasida zavodning hurmat taxtasi, ba'zi stendlarga zavod fizkulKjturachilari olgan kubok va faxriy yorliqlari qo'yilgandi.

Gulzorning orqasida, to ko'z ilg'amas joylarga, bir-biriga parallelKj qurilgan baland oynavand sexlar qad ko'targandi. Ular xuddi katta parniklarni eslatardi.

Bizning mexanika seximiz gulzorning orqasidagi uchinchi binoga joylashgan.

Hovliga kirishim bilan gulzorning o'rtasidan o'tgan yo'lning chap tomonida, kichkina sement hovuzchaning yonida to'planib turgan brigadamiz yigitlariga ko'zim tushdi. Mening to'g'rimda qandaydir gap ketayotgan bo'lsa kerak, darvozadan kirishim bilan yigitlardan biri:

- Ana, o'zi ham keldi! - deb yubordi. Hovuzning yoniga tiz cho'kib, soqol qirtishlayotgan Kuloyans:

- Olamda bormisan, akademik? - dedi ko'pik chaplashgan yuzini burib, - Izlamagan joyimiz qolmadiku? Qayoqlarda yuribsan?

- Nima gap o'zi? - dedim, yigitlar bilan ko'risharkanman, lekin g'ovur-g'uvur bo'lganidanmi, bilmadim, hech kim menga javob bermadi.

Beligacha qip-yalang'och bo'lib, kranning suviga yuvinayotgan To'lagan dabdurustdan.

- O'rtoqlar, tunov kuni men buni bitta jonon bilan boshlashib yurganini ko'ruvdim! - dedi itoatsiz sochlarini artarkan. - Ammo jononi ja zo'r ekan!

- Shuning uchun o'qishga kirmasdan qochib yurgan ekan-da, - deb kimdir orqamdan gap otgan edi, hammasi birdan qah-qah otib kulib yuborishdi.

- Nima gap o'zi? Nimaga qidirdilaring? - dedim yuragim po'killab.

Soqolini olib bo'lib yonimga kelgan Kuloyans yelkamga bitta tushirdi:

- Jononga oshiq bo'laman deb aqlu hushingdan ayrilibsan-da! Tunov kungi gaplar esingdan chiqdimi?

Brigadamiz ilg'or mehnat brigadasi, degan nom olmoqchi-yu, sen bo'lsang laqillab yuribsan. Qoyilman sendaqa akademikka!

- Odamlarni chalg'itma! - dedi To'lagan paxmoq sochiq bilan muskullari bo'rtib turgan badanini qizartirib artarkan, - nom olish uchun kurashga bel bog'lamoqchimiz degin! Hali poygada o'zib kelsang olasan bu nomni!

Men g'ashim kelib: "E, qo'ysang-chi bu soxta gaplarni. Bu quruq safsatalarga o'zing ham ishonmaysan-ku?" deb baqirgim keldi, lekin bir yil bir sexda birga ishlashib, ancha do'stlashib qolganimiz uchunmi, ularni ranjitgim kelmadi. Shu payt: "E, Sharifjon kepti-da", - degan yo'g'on, do'rilloq ovoz eshitildi:

Sulaymon aka ham To'laganlarga o'xshab odatdagi ishchi korjomasi o'rniga yangi kostyum-shim kiyib, bo'yniga galstuk taqib olgan edi. Men buni ko'rdimu, hamma gapga tushundim.

Demak, hozir majlis bo'ladi. Majlisda bular meni o'rtaq olib toza po'stagimni qoqishadi. "Ilg'or brigada" degan nom olayotganimizda ishdan qochyapsan, deb rosa izza qilishadi".

Shu haqda o'yladimu, yurak yutib, Sulaymon akaga:

- Sizga bir og'izgina gapim bor edi, - deb iltijo qildimda, u kishining javobini ham kutmasdan yo'lakka chiqdim:

Sulaymon aka kulimsirab:

- Ha, nima gap, tinchlikmi o'zi, o'g'lim? - deya orqamdan chiqdi.

Shu topda o'zim juda to'lib turgan ekanmanmi, yo Sulaymon akaning iliq muomalasi sabab bo'ldimi, ishqilib shu zalning o'zidayoq u "o'g'lim" deb gap boshlashi bilanoq, og'zidan so'zini olib, bo'lgan voqeani so'zlay ketdim. Hayajonlanib, duduqlanib gapira boshladim. Sulaymon aka palapartish hikoyamni tippa-tik turganicha oldin kulimsirab (aftidan, mening samimiyligimdan sevinib), so'ngra qoshlarini chimirib, o'ychan ko'zlarini bir nuqtaga tikib, indamasdan eshitdi. Gapirib bo'lganimda klubda bitta ham odam qolmagan, bo'sh zalda faqat ikkimiz turardik. Nihoyat Sulaymon aka ko'zlarini bir nuqtadan uzib, yuzimga tikildi.

- PĥPiP°CĔ CÍChPSPiPiPē PēPjC,PēTiPsPSPrP°PS TiP°Pj CĬC...CĔPē ChC,PiP°PSPēPSPiPrP°... P±Cf PμCĔPiP° T>P°PN°C ,PēP± PePμP»PjP°CÍ CĬPēP°PSCÍP°PS-PrP°, CĔCfPSP°T>P°PjPē? - PrPμP± CÍChCĔP°PrPē.

- Ha, - deya bosh irg'atdim.

Uning yuziga qarashga jur'at etmasdim, gapni o'zim boshlagan bo'lsam ham yuragimda bor gapni aytib bo'lganimdan keyin birdan o'zimni yo'qotib qo'ydim.

Juda uzoq tuyulgan jimlikdan keyin Sulaymon aka:

- Ertalab oying uyda bo'ladimi? - deb so'radi.

- Bo'lsalar kerak.

- Aytib qo'y: ertalab soat sakkizlarda boraman, yo'ldan kirib o'taman.

Yalt etib uning yuziga qaradim. Sulaymon aka o'siq qoshlarini chimirib, o'ychan ko'zlarini bir nuqtaga tikib, uzun, dag'al barmog'i bilan uchlari sarg'ayib qolgan mo'ylovini silab turardi. Boshimni ko'tarishim bilan u ham qaradi, tomirlari bo'rtib chiqqan katta, yalpoq kaftini cho'zdi:

- Xo'p, gap shu! - dedi u, - ertaga uchrashamiz! "Nima demoqchi? Oyim bilan nima to'g'risida gaplashmoqchi?" xayolimda shu notinch o'ylar bilan uyga ketdim...

* * *

Uyga kun botib, qosh qorayib qolganda kirib bordim. Oyim gulzorning o'rtasidagi supada ikki qo'lini tizzasiga qo'yib, allaqanday o'ychan, g'amgin bir vaziyatda o'tirar, oq shoyi ko'ylagining ustidan popukli ipak kamar taqib olgan Salim Karimovich esa supa bilan gulzor o'rtasidagi bir parcha yerda u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib turari. U kamarining bir uchini o'ng qo'lga ushlab olgan va uning popugi bilan chap qo'lini hadeb savalar, bu esa uning nimadandir bezovta bo'layotganini ko'rsatardi. Eshik "g'iyq" etib ochilishi bilan Salim Karimovich to'xtadi. Ko'zoynaklari ustidan tikilib qaradi. Oyim cho'chib boshini ko'tardi.

- Xayriyat! - dedi Salim Karimovich va nimagadir boshini chayqab uf tortib qo'ydi. - Biz seni deb qayoqlarga borib, ertalabdan beri chop-chop qilib yuribmiz-u, sen bo'lsang... O'z holingga yuribsan. Odam - degan ham shunaqa beparvo bo'ladimi, o'g'lim? Oyim indamasdan o'rnidan turib oldimga keldi va allaqanday holsiz, charchoq ovozdada:

- Qayoqlarda yuribsan, bolam?- dedi sekin. Uning ko'zlari jiqqa yoshga to'lganini ko'rib, shoshib qoldim.

- Qani yur, uyga kiraylik, - dedi Salim Karimovich qat'iy ovozdada, - bir soat vaqt qoldi!

Hayron bo'lib bir oyimga, bir Salim Karimovichga ko'z tashladim. Salim Karimovich menga qarab mamnun kuldi:

- Bir balo qilib ishingni to'g'riladik, o'g'lim... O'rtoqlar iltimosimizni qaytarmadilar. Qani bo'la qol, inshoingni to'g'rilab kelganman, tezroq ko'chirib ber!..

Shoshganimdan:

- A?! - deb yubordim. Salim Karimovichning bu xabaridan quvonish kerakmi, yo'qmi, buni hali o'zim ham yaxshi tushunib yetmasdanoq, yodimga Sulaymon Akramovich tushdi. Tushdi-yu, ko'nglimning bir chetiga "yarq" etgan shodlikka sovuq suv sepilgandek bo'ldi.

- Yo'q, foydasi yo'q, - dedim. - Endi foydasi yo'q...

Bu so'zlarni sekin aytdim, lekin qiziq, shunday deyishim bilan Muqaddasni esladim!

"Nahotki to'g'rilash mumkin bo'lsa? Nahotki biz bir institutda, bir auditoriyada, bir joyda o'tirib besh yil o'qishimiz mumkin bo'lsa? Nahotki u bilan doim birga bo'lish baxtiga muyassar bo'lolsam?"

- A? - dedi Salim Karimovich, - qayta ayt: nima deding?

- Uyga kiraylik, uyga kirib gaplashaylik, - dedi oyim. Uning ovozida qandaydir qo'rquv bor edi.

- Bu qandoq bo'ldi? В Ё”dedi Salim Karimovich. U bunaqa javobni sira kutmaganidan bo'lsa kerak, ko'zoynagini dam qo'lga olar, dam qayta taqib, bir oyimga, bir menga qarardi, - O'qishga xohishing yo'q bo'lsa, ya'ni umrbod shu zavodda oddiy ishchi bo'lib o'taman desang... tag'in o'zing bilasan. Ammo bunday qulay payt turmushda bir keladi, o'g'lim. Sening o'ringda bo'lsam uni qo'ldan bermas edim, tag'in o'zing bilasan!

Oyim qo'limdan ushladi:

- Yur, o'g'lim, uyga kiraylik...

Indamasdan oyimning ketidan uyga kirdim. Salim Karimovich nimagadir kirmadi.

Xayolim birdan to's-to'polon bo'lib ketgan, ko'nglimda bir-biriga zid hislar olishmoqda edi. Haqiqatan ham g'alati ahvolga tushib qolgandim. Muqaddasni desam, boyagi ajoyib odamlardan, do'stlarimdan ayirilishimni sezardim, lekin ularni desam... Muqaddas nima bo'ladi?..

Oyim ayvondan uyga kirayotib eshik tepasidagi tugmachani bosdi. Uyni charaqlatib yuborgan lampochka nurida stolda turgan katta sopol tovoq to'la oshni ko'rdim. Oshga hech kim qo'l urmagan, aftidan, oyim uni menga suzgan-u, kelmaganimdan keyin o'choqqa qo'yishni unutgan, osh sovib qolgan edi.

- Ovqatingni isitib beraymi? - dedi oyim. "Yo'q" deb bosh chayqagandim, yuzimga tikildi.

- Qani o'tir, nima gap o'zi, tuzukroq tushuntir-chi?

Oyim qo'limdan tortib stulga o'tqizdi-da, o'zi ham chetda turgan stulni ro'paramga surib o'tirdi. Lampochkaning ko'zni qamashtiruvchi o'tkir yurug'ligida uning peshonasidagi ko'zlari va lablarining chetlaridagi ajinlari anig'roq ko'rindimi, yo butun qiyofasidagi allaqanday mungli, ma'yus ifoda ta'sir etdimi, bilmadim, ishqilib, birinchi marta uning xiyla qarib, charchab qolganini aniq ko'rdim. Nazarimda uning dilida mendan, o'z farzandidan yashirib yurgan bir dardi, nidosi bordek tuyuldi-yu, bir sekundga oyog'iga cho'kka lab, uning tizzasiga bosh qo'ygim, yuvilaverib rangi o'chib qolgan chit ko'ylagiga yuzimni yashirib, orom olgim, hamma narsani unutgim keldi.. Lekin xuddi shu payt oyimning ko'zlaridagi ma'yuslik allaqanday sovuq bir ifoda bilan almashdi.

- Nimaga indamaysan? Qaqlarda tentirab yuribsan?

Bu sovuq ifodani ko'rmaslik uchun yerga qaradim, shu vaziyatda bo'lgan voqeaning hammasini aytib berdim, zavodga borganimni, do'stlarimning qanday qarshi olganlarini, Sulaymon Akramovichga sirimni ochganimni va uning ertaga kelmoqchi bo'lgani - hammasini gapirib berdim, faqat Muqaddas to'g'risida hech nima demadim.

Oyimning ko'zlariga o'ychanlik cho'kkan edi. U yuzimga tikilib o'tirar, lekin xayoli boshqa yoqlarda edi. Asta-sekin qalbinga tag'in boyagi tuyg'ular quyilib kela boshladi: tag'in boyagidek uning mushtipar bir ayol ekanini, ko'nglining bir burchida mendan yashirib yurgan sirlari borligini o'ylay boshladim, biroq xuddi boyagidek tag'in ko'nglim erib ketayotganda oyim gap boshladi:

- Sulaymon aka bilan o'zim gaplashaman, - dedi u biosiq, ma'yus ovozdada, - unga hammasini o'zim tushuntiraman. Nechuk seni o'qishga kiritishga bunchalik urinayotganimni o'zingga ham aytib beraman, bolam. Ehtimol men noto'g'ri qilayotgandirman. Biroq boshqa ilojim yo'q. Buning sababini keyin tushuntirib beraman, bolam. Lekin... Sen hozir dadangning aytganini qil: inshoingni unga ko'chirib ber. Bo'lmasa kech qolamiz...

To'g'risini aytsam, ko'nglimning bir chetida qandaydir shubha bor edi. Oyim keltirgan, to'g'rirog'i, inshoni yozib berganimdan so'ng aytadigan dalillari qanchalik salmoqli bo'lmasin, do'stlarim oldida o'zimni oqlay olmasligimni sezardim, lekin... ko'z oldimda kulib turgan Muqaddas, u bilan besh yil birga bo'lish istagi bu o'ylardan zo'r chiqdi-yu, qanday qilib "xo'p" deb yuborganimni o'zi ham bilmay qoldim.

Oyim tashqariga chiqib birpasdan keyin dadamni boshlab kirdi. Nimagadir kulimsiragan, aftidan, o'z ishidan mamnun bo'lgan Salim Karimovich qo'limga o'rog'liq qog'ozni berarkan:

- Qanaqa yozganingni bir ko'rib qo'ygin-u, qanaqa yozish kerakligini ham o'rganib olgin, - dedi jilmayib, - kelajagingni shu qog'oz hal qiladi. Ehtiyot bo'l, o'g'lim!

Bu o'sha - Gulnor bilan Yo'lchi to'g'risida o'z qo'lim bilan yozgan insho edi. U qizil qalam bilan shunday tuzatilgan, shunday chizib tashlangan ediki, xuddi quuroq ko'rpani eslatar, qalam tegmagan bitta ham jumla qolmagan edi. Men bunchalik tuzatishlarning sabablariga tushunmoqchi bo'lib, inshoni o'qiy boshlagan edim, dadam qo'lini yelkamga qo'yib:

- Oldin ko'chirib ber! Keyin o'qiysan! - dedi. Oyim bu gaplar mening izzat-nafsimga tegib ketishidan qo'rqsa kerak:

- Bo'laqol, bolam, tezroq ko'chirib beraqol, - dedi sekin.

Oyim qo'rqmasa ham bo'lardi: Salim Karimovichdan xafa bo'ladigan joyim ham yo'q, haqim ham yo'q edi.

Keyinchalik hamma narsa hal bo'lgandan keyin men har safar o'sha daqiqalarni eslaganimda shunday uyalar, yuragimni shunday qattiq bir og'riq changallab olardiki ingrab yuborardim. Lekin u mahaldd birovning qo'li bilan tuzatilgan inshoni ko'chirib naqadar katta xato qilayotganimni sezmas edim, chunki xayolim quvonchli bir fikr bilan band edi: - Endi Muqaddas ikkimizni hech narsa ajrata olmaydi!

Mening o'rnimda hamma ham shu ahvolga tushib qolarmikin, yo men o'zim shunchalik beqaror ekanmanmi, bilmadim, ishqilib, o'shandan atigi bir soat oldin, majlis vaqtida qilgan afsuslarimni unutib, inshoni qayta ko'chirar edim. Majlis mahalida, u yerda jo'sh urgan mehnat ruhiga maftun bo'lib, Muqaddasni unutgan bo'lsam, endi o'sha do'stlarimni, o'sha ajoyib ruhni unutib, yolg'iz Muqaddasni o'ylardim...

Nihoyat yozib bo'ldim. Salim Karimovich yozganlarimni o'zi bir marta o'qib chiqqach, biror soatda qaytib kelishni va'da qilib, oshnasining oldiga jo'nadi. U chiqib ketishi bilan oyimga qaradim: uning qo'lida bu noto'g'ri, iflos kirdikorni oqlaydigan qandaydir bir hujjat bor edi. Men bu hujjatni ko'rishni, vijdonim oldida o'zimni oqlashni istardim! Oyim ham mening maqsadimni so'zsizozq tushundi shekilli, uying to'riga borib, butun devorni qoplab olgan guldor choyshabni ko'tarib mixga ildi va taxmonda turgan katta eski sandiqning ustidagi ko'rpalarni bitta-bitta olib stolga qo'ya boshladi.

Men indamasdan uning ishini kuzatib o'tirardim. Ko'rpalarni olib bo'lgach, oyim sandiqni ochdi-da, uning ichidan chetlari qirqilgan eski bir chamadon olib, oldimga qo'ydi. Chamadonni ochayotganida qo'llari sekin titrayotganini payqab qoldim.

"Nega?! Men hamma baloni o'zim qilib, yana aybni unga to'nkab, diliga ozor berayotganim yo'qmikin?.."

Chamadondagi narsalar oq shoyi bilan o'ralgan edi. Oyim shoyini ko'tardi va men ehtiyotkorlik bilan taxlangan bir chamadon xatlarni, eski konvertlarni ko'rdim. Ularning ko'pchiligi uch burchak xatlar bo'lib, sarg'ayib, chetlari yirtilib ketgan, ko'k qalam bilan bitilgan ustidagi yozuvlari ham o'cha boshlagan edi.

- Bu... otangning xatlari, - dedi oyim, dedi-yu, ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi, - mana, o'ziniyam bir ko'rib qo'y...

Oyim xatlarning tagidan katta bir konvert topib undan ikkita surat oldi va bittasini menga uzatdi.

- Frontda tushgan surati...

Bu - uzun bo'lyli, chakka suyaklari turtib chiqqan, lunjlari ichiga botib ketgan qop-qora bir odamning surati edi. U jilmayib turar, lekin negadir, aftidan, juda ozib-to'zib ketgani uchun bo'lsa kerak, yig'lab turganga o'xshardi. Uning boshida eski pilotka, egnida g'ijimlangan eski gimnastyorka, oyog'ida katta kirza etik, suratning tagiga esa qalam bilan "Leningrad, 1941" degan yozuv bitilgan edi. Ko'zim shu yozuvga tushdi-yu, yig'lab turganga o'xshagan bu qop-qora novcha odam yuragimga yaqin, mehribon, go'yo mard va dovyurak bir kishiga aylandi, go'yo "Leningrad, 1941" degan so'zlar to'satdan yarq etib nur sochdi-yu, bu nur pilotka kiygan notanish odamning qalbini, ichki dunyosini, ruhini yoritib yuborgandek bo'ldi...

"Otam!" Men bu so'zni faqat xayolimda tilga olsam ham, u to'satdan ko'nglimni eritib yubordi. Ajabo: men bu so'zni birinchi marta chin qalbidan, samimiy tilga olishim edi...

- Mana, buni ham bir ko'rib qo'y...- Oyim ikkinchi suratni cho'zdi, cho'zarkan; bilinar-bilinmas qizargandek va kulimsiragandek bo'ldi.

Bu dadam ikkisini urushdan oldin oldirgan suratlar edi. Ikkisi ham yosh va baxtiyor edilar.

- Mana shu odam sening otang, o'g'lim, - dedi oyim sekin. - Men otang oldida gunohkor emasman, o'g'lim. Xohlasang, mana xatlarini ham o'qib ko'r. Men juda yosh bo'lganim uchun... turmush qildim. Biroq men hanuzgacha... - Oyim entikdi, bir zum so'zidan to'xtab, ro'molcha bilan ko'zlarini artdi, so'ngra o'zgargan, bosiq ovozda davom etdi: - Men uni hanuzgacha unutganim yo'q, o'g'lim. Shuning uchun uning bittayu bitta vasiyatini bajarmasam vijdonim oldida tinchiy olmayman. Uning bittayu bitta vasiyati - seni o'qitish edi, o'g'lim, seni o'qitib injener qilish edi. U o'zi injener edi, yaxshi injener edi. Sening ham injener bo'lishingni orzu qilardi. Mana, uning o'lim oldida gospitaldan yozgan xati. Ishonmasang, o'zing o'qib ko'r.

Oyim bir chamadon xatlarning orqasidan uch burchak qilinib buklangan va ustiga ko'k qalam bilan adres yozilgan sarg'ish konvertni olib, menga cho'zdi.

- Gospitaldan, o'lim oldida yozgan xati, - takrorladi oyim, keyin yuzimga qaramasdan sekin qo'shimcha qildi:

- Otang qornidan yaralangan edi...

Xatni olmadim. Otam to'g'risida yana bir og'iz so'z eshitadigan bo'lsam, o'zimni tutolmay qolishimni sezdimda, o'rnimdan turib eshikka tomon yurdim. Oyim to'xtatmadi: u mening qalbidagi hislarni tushungan edi.

Tashqarida havo birdan o'zgarib, shamol ko'tarilgan, hovlidagi olcha va o'riklar sovuq kuz kelayotganini eslatib qattiq guvillar, shovillar edi. Tiniq, baxmaldek mayin osmonni to'ldirgan yulduzlar ham bugun odatdagidan boshqacharoq ko'rinar, muz parchalarini eslatib sovuq chaqnardi...

Ayvonning ustuniga suyanib bir nafas turdim. Daraxtlarni egib, guvillatib esayotgan shamol yuzimga urib, ko'nglimdagi g'ulg'ulani tag'in ham kuchaytirib yubordi.

Derazadan oyimning soyasi ko'rindi: u ko'rpalarni joyiga yig'a boshlagan edi. Sekin borib joyimga, olchalar orasidagi yog'och karavotga o'zimni tashladim.... Shamol hamon g'uuvillar, daraxtlar kuzdagidek qattiq shovillar edi.

Oyimning gaplaridan keyin men uning o'zicha haq ekanligini tushundim, lekin qiziq, dadamning xatlari, surati, oyimning hikoyasi ko'nglimni tinchitish u yoqda tursin, o'ylarimni to's-to'polon qilib yuborgan edi. Bu xatlar ehtimol oyimni oqlar, lekin meni-chi? Meni oqlarmikin?

Bu o'ylardan qutulish niyatida boshimni ko'rpaga o'radim.

* * *

Ertalab kun chiqar-chiqmas uyg'ondim. Tundagi shamol tingan, osmon ko'm-ko'k, tiniq edi. Quyoshning ilk nurlari hovlidagi ikki tup mirzaterakning uchlarida jilvalanar, hammayoqqa qandaydir osoyishtalik cho'kkan, hovli suv sepgandek jimjit edi.

To'satdan uy tomondan Salim Karimovichning ovozi eshitildi. Hayron bo'lib muzdek olcha shoxlarini egib mo'raladim, chunki Salim Karimovichning bunaqa erta turadigan odati yo'q edi. Uydan oyim bilan katta charm papkasini qo'ltiqlab olgan Salim Karimovich chiqdi. Norozi ovoz bilan sekin gapirmoqda edi:

- Men u odam bilan gaplashishni istamayman. Ammo ehtiyot bo'ling. Bir chatoq chiqsa men ham, o'rtoqlar ham uyatga qolamiz.

- Sulaymon aka gapga tushunadigan odam, - dedi oyim, - O'zim yotig'i bilan tushuntirib qo'yaman.

- Xo'p. Ishqilib uyatga qolmaylik. Hozirgi paytda bu nihoyatda nozik masala...

"Insho to'g'rilanibdi!" Miyamda "yarq" etgan bu fikr nimagadir dilimni ravshan qilolmadi. Birdan Sulaymon aka keladigan vaqt yaqinlashib qolganini eslab, o'rnimdan turdim. Qiziq, xayolimga kelgan birinchi fikr uydan tezroq chiqib ketish, u bilan uchrashmaslik, uni ko'rmaslik bo'ldi. Kranga borib muzdek suvga boshimni yuvdim. Kiyinib endi chiqaman deb turganimda darvoza tomondan oyim ko'rindi.

- Inshoing to'g'rilanibdi, tabriklayman, o'g'lim! - dedi u kulimsirab. Lekin ko'zlari xuddi kechagidek ma'yus edi.

- Yo'q, yo'q, sen ketmagin, - dedi oyim Sulaymon aka bilan uchrashmaslik niyatida ketmoqchi bo'layotganimni eshitib. - So'rab qolsa uyat bo'ladi.

Oyimning hayajonlanayotganini tushundim-da, qaytib joyimga borib yotdim.

Ko'nglim g'ash edi, hatto nimadandir qo'rqardim, bu qo'rquv dilimga ozor berar, izzat-nafsimga tegar, lekin undan qutulishga ojizlik qilardim.

Darvoza takilladi. Oyim shoshib, tez-tez yurib o'tib ketdi. Bir ozdan keyin Sulaymon akaning yasamaga o'xshagan do'rildoq ovozi go'yo hovlini to'ldirib, jaranglatib yubordi:

- Choy-poyga ovora bo'lmang, Hammasi bo'lib besh minutga keldim, xolos. Qani, shu so'rida o'tira qolaylik.

- Uyga kiraylik, hali sizga aytadigan ancha gaplarim bor, - dedi oyim.

Sulaymon aka uyga kirish-kirmasligini bilmasdan ikkilandi shekilli, bir zum jim qoldi.

- Men siz bilan gaplashaman, deb kelsam, hali siz men bilan gaplashib qo'yaman deng! Obbo siz-e... Sharifjon qani? Chaqiring uni!

Yuragim "shuv" etib o'rnimdan turib ketdim. Lekin shu vaqt oyimning:

- "Sharifjon shu yerda, oldin o'zimiz bir gaplashib olaylik, keyin uni ham chaqiramiz", - degan so'zlari bilan ko'nglim bir oz o'rniga tushgandek bo'ldi.

- Hay, mayli, gapingiz bo'lsa eshitaylik, - dedi Sulaymon aka. - Ammo boshqa narsaga ovora bo'la ko'rmang. Shoshib turibman. Sulaymon aka katta, og'ir etiklari bilan yerni gurs-gurs bosib ayvonga chiqdi, keyin ikkisi ham uyga kirib ketdilar-u, ovozlari eshitilmay qoldi.

O'rnimdan turib o'tirdim. Yuragim po'killab urar, bir o'yim chopib borib suhbatlarini bo'lgim, "o'qishni ham, ishni ham yig'ishtirib qo'ydim!" - deb baqirgim kelardi...

"Besh minut o'tiraman", degan Sulaymon akaning uyga kirib ketganiga chorak soatdan oshiqroq vaqt o'tdi-yu, lekin undan darak yo'q edi.

"Nega bularning gapi juda cho'zilib ketdi? Yoki oyim menga ko'rsatgan xatlarini unga ham ko'rsatyaptimikin?" Toqatim toq bo'ldi. Derazadan ko'rinib qolmaslik uchun kranni aylanib o'tib, ayvonga yaqinlashdim. Ichkaridan Sulaymon akaning ovozi eshitilib turardi. Ustunning yoniga borganimda so'zlari qulog'imga aniq-aniq kira boshladi:

- Xo'p, tag'in o'zingiz bilasiz, lekin qattiq yanglishayotganingizga shubham yo'q! - derdi Sulaymon aka. - Bunga mening imonim komil, Rahimaxon! Shunday ajoyib ishchi, ajoyib odam bo'lib yetishayotgan o'smirni yo'ldan uribsiz-a? Bay-bay-bay!

Oyim bir nima deyaotgan bo'lsa kerak (uning ovozi eshitilmas edi), Sulaymon aka bir necha daqiqa sukut qildi, so'ngra ilgariyidan ko'ra asabiy va qattiqroq ovoza:

- Men Sodiqni sizdan kam bilmayman! - dedi, - biz birga o'qiganmiz, urushda ham birga bo'lganmiz! U Sharifning injener bo'lishini orzu qilardi. Bu - to'g'ri! Lekin Sodiq hayot bo'lganida sira bu yo'lga boshlamas edi. Siz uni boyvachchaga aylantirmoqchi bo'lyapsiz! Ammo gap uni boyvachcha injener qilib yetishtirishda emas, gap uni odam qilib yetishtirishda! To'satdan miyamda isyonkor bir fikr chaqnadi.

"Nima demoqchi? Meni odam bo'lmaydi demoqchimi? Yo'q!" Ichkariga kirmoqchi bo'lib intildim-u, uydan Sulaymon akaning:

- Xo'p, mayli, bilganingizni qiling! - degan gapini eshitib kirishga jur'at qilolmasdan yana to'xtadim. - Sharifning o'qishiga qarshi emasman. O'qisin, injener bo'lsin, faqat bu yo'ldan bormasin, deyaipman xolos! - derdi Sulaymon aka. - Injener bo'ladimi, olim bo'ladimi, to'g'rilikcha bo'lsin deyaipman, xolos! Xo'p, boshqa gapingiz yo'qmi? Xayr!

Ayvon bilan olchazorning orasi o'n-o'n besh qadam kelardi. Unga yetib borish... Bu to'g'rida o'ylab ulgurmagan edim hamki, eshik ochilib ostonada Sulaymon aka ko'rindi. Uning yuzi hammomdan chiqqanday qizargan, qoshlari tutashib, qovog'i solingan, oppoq qalin sochlari to'zg'igan edi. Men uni ko'rdim deguncha yuragimdagi boyagi isyonkor tuyg'ulardan asar ham qolmadi. Aksincha, o'z ixtiyoriga qarshi unga tomon yurdim. Sulaymon aka meni ko'rib to'xtadi, Lekin ko'rishmadi.

- O'z fikrimni oyingga aytdim! - dedi u, aftidan, meni ham gaplashmoqchi deb o'ylab, - endi bilganlaringni qilinglar. Lekin institutga xat yozib, sirimni ochadi deb qo'rqmasalaring ham bo'lardi...

Sulaymon aka, qoshlarini chimirib bir zum jim qoldi.

- Niyatim boshqa edi... Ming afsus, maqsadimga tushunmabsan!..

U shartta burilib, zinadan tez-tez yurib pastga tushdi-da, darvozaga qarab ketdi.

"Nahotki, shu ketishda chiqib ketsa? Nahotki to'xtamasa?.."

Yo'q, to'xtadi. Hovlining o'rtasiga borganda to'xtadi, o'ng qo'lidagi g'ijimlangan shapkasini boshiga qo'ndirarkan, chaqirdi:

- Beri kel!

Men chopib bordim.

- Mabodo... keyin, turmushda qiynalib qolsang... ahmoqlik qilib yurma, oldimga bor. To'g'ri boraver, tushundingmi?

- Sulaymon aka!

- Tushundingmi? - yuzimga qaramasdan dedi u va javobimni ham kutmasdan vazmin, og'ir qadamlar bilan hovlidan chiqib ketdi. Tishimni tishimga bosib, mushtimni tugdim.

"Yo'q bormayman, hech qachon bormayman!"

U menga bir og'iz iliq so'z aytmadi, nimaga shunday qilyapsan, deb bir og'iz so'ramadi ham, mening dilimda ham o'zimga yarasha bir dardim borligini bilishni istamadim!..

"Yo'q, rahmat, bormayman!"

Bu odamning otalarcha muomalasiga o'rganib qolganim uchunmi, bilmadim, uning bu qadar sovuq muomala qilishi shunchalik qattiq tekkan ediki, alam va xo'rlikdan ko'z yoshlarimni zo'rg'a tiyib turardim.

Bir ozdan keyin uydan oyim chiqqanda, biz bir-birimizning yuzimizga qaray olmadik. U mendan ko'zlarini olib qochar edi, men undan... lekin ish bitgan edi! Men hatto choy ham ichmasdan uydan chiqib ketdim. Institutga bordim, parklarni aylanib kechqurungacha yurdim. Asta-sekin ko'nglimdagi g'ubor tarqab, uning o'rnini allaqanday yorug'; dilni ravshan qiladigan o'ylar;

orzular egalladi: endi institutga kirishim, Muqaddas bilan birga bo'lishim muqarrar edi!

* * *

Shu kundan boshlab men uchun har soati bir yil tuyulgan kutish davri boshlandi. Men ikki narsani kutardim. Biri institutga qabul qilinganligimiz to'g'risida chiqadigan buyruq bo'lsa, ikkinchisi Muqaddas edi. Har kuni ertalab uyqudan uyg'onar-uyg'onmas institutga qarab chopardim, yuragimni hovuchlab foyedagi e'lonlar yopishtiriladigan doskaning oldiga borardim, buyruqning chiqmaganini ko'rgach, hafsalam pir bo'lib, qaytib ketardim-u, kun bo'yi shaharni kezib, kechqurun yana borardim... Shu taxlitda ikki kun o'tdi. Ungacha Muqaddas ham qaytib kelmadi. Uchinchi kuni ertalab, endigina uyqudan uyg'onib, ko'zlarimni ochgandim, yonimga oyim keldi, karavotning chetiga omonatgina o'tirib peshonamdan o'pdi. - Tabriklayman, o'g'lim! - dedi u ma'yus jilmayib, - buyruq chiqqan emish. Salim Karimovich kechasi kelib aytdi...

Yuragim birdan qattiq urib, yuzim lovillab o'rnimdan sakrab turdim.

Dadam hovlida yalang oyoq, pijamasining pochalarini tizzasigacha shimarib, gullarga suv qo'yib yurardi. U meni ko'rib yonimga keldi, ho'l, muzdek kafti bilan qo'limni siqdi.

- Endi tabriklaymiz, o'rtoq student!

Apil-tapil yuvinib, institutga chopdim.

O'sha kuni quvonchga quvonch ulashib ketadigan baxtli bir kun ekan: yaqindagina yuvilgan asfalt ko'chalar salqin va oynadek charaqlab, suv purkalgan daraxtlar quyosh nurlariga cho'milib, go'yo bayramda yasangan qizlardek ochilib, yashnab ketgandi.

Gavjum ko'chalardagi odamlar ham har kungidan yaxshiroq kiyingan va nima uchundir odatdagidan muloyimroq va yoqimliroq ko'rinardi. Hamma bir-biriga yo'l berar, bir-birini izzat qilardi. Tramvayga chiqqanimda o'zimdan yoshroq bir qiz o'rnidan turib menga joy berdi va "marhamat, o'tiring", deb jilmayib qo'ydi, tramvaydan tushib institutga qarab chopib ketayotganimda, orqamdan birov "yigitcha!" deb chaqirdi-da, cho'ntagimdan avtoruchkam tushib qolgan ekan, boyagi qizdek muloyim kulimsirab qo'limga tutqazdi.

Institut eshigi oldida, imtihon chog'idagidek bo'lmasa ham har qalay xiyla odam to'plangan edi. Nazarimda qizlarning orasida Muqaddas ko'ringandek bo'lib yuragim o'ynab ketdi. "Qo'rqqanga qo'sha ko'rinadi", degan gap rost ekan-da, institutga yetib qolganimda to'plangan yoshlar orasida birga imtihon topshirgan tanish qiz-yigitlarga ko'zim tushib, to'satdan yuragim "shuv" etdi-yu, a'zoyi badanimdan sovuq ter chiqib ketdi. O'zimni ko'rib-ko'rmaslikka solib, jadallab o'tdimda xuddi suvga sho'ng'igandek foyega urib ketdim.

Foyeda ham odam ko'p edi. Bu yerga keluvchilarning ko'pchiligi qabul qilinishiga umidi borlar, hatto ishonganlar bo'lgani uchundir, albatta, ko'pchilikning yuzida shodlik aralash hayajon jilva qilar, ko'zlari chaqnardi.

e'lonlar osilgan katta qora doskaning oldidagi olomonning orasiga suqilib kirib, turib-turtkilanib oldinga o'tib oldim. Lekin hayajonlanganimdan go'yo doska chayqalar, qog'ozlardagi yozuvlar bir-biriga chaplashib ketganga o'xshar, men qidirgan buyruq hech topilmas edi...

Ha, mana bizning fakulKitet!.. Ko'zlarim uzun ro'yxatga qadaldi. O'z ismim va familiyamni qidira boshladim. Ana, topdim.

Yuragim gupillab, ro'yxatning boshiga tikildim. Abbosov; Akramova, Alimov, Ahmedova, Bobojonov... yo'q! - Yuragim shuv etib, ro'yxatni yana boshidan oxirigacha o'qib chiqdim: Muqaddas rostdan ham ro'yxatda yo'q edi!.. Ko'zlarimga ishonmasdan ro'yxatni qayta boshdan o'qishga kirishdim... Nahotki, qabul qilinmagan bo'lsa?

Uning ro'yxatga kirmay qolganiga, demak institutga ham qabul qilinmaganiga aqlim yetib turardi, lekin bunga ishongim kelmas, ishonishdan qo'rqar edim. Shuning uchun xuddi boshqa ro'yxatlarda bo'lishi mumkindek, ularni ham bir-bir o'qib chiqdim, so'ngra yana birinchi ro'yxatga qaytdim. Lekin asta-sekin orqadan kelganlar turtib-siqib xuddi toshqin qirg'oqqa chiqarib tashlagan bir cho'pdek, meni chetga chiqarib qo'ydi. Shundan keyingina bir oz hushimga kelib, bu hodisaning sababini qidira boshladim. Lekin o'ylab-o'ylab bir qarorga kelolmadim. Umuman, buning hech qanaqa sababi yo'q, sababi bo'lishi mumkin emas edi! Aftidan, bir anglashilmovchilik yuz bergandi, ehtimol ro'yxat ko'chirilayotganda xato bo'lib, uning familiyasi tushib qolgan bo'lsa! Bu xatoni tezroq tuzatish, Muqaddas kelmasdan oldin tuzatib qo'yish kerak edi!

Qabul komissiyasiga borsammikan, yo dekanatgami, degan o'y bilan bir nafas ikkilanib turganimdan keyin, dekanatga borishga qaror qildim, chunki buyruq chiqqandan keyin bunaqa masalalar bilan dekanat ham shug'ullanishini bulturoq bilib olgan edim.

O'ng qo'lga burilib, tor yog'och zinalardan uchinchi qavatga chiqa boshladim. Aftidan, menga o'xshab xato "qidirib" yurganlar ozmuncha bo'lmasa kerak, yuqoriga chiqib-tushayotganlar son-sanoqsiz, hamma yerda g'ovur-g'uvur, to'polon edi. Lekin qatnovchilarning ko'pchiligi ikkinchi qavatdagi institut direktorining kabinetiga burilib ketar, uchinchi qavatga chiquvchilarning soni xiyla oz edi.

Direktorning kabinetiga burilmasdan, uchinchi qavatga ko'tarila boshlaganimda ko'nglimdan: "Ular mendan siz u qizning kimi bo'lasiz, deb so'rab qolishsa nima deyman", degan fikr o'tdi.

Beixtiyor qadamim seskinlashib qoldi. Xuddi shu vaqt tepada, uchinchi qavatning yo'lagida, zinaga tomon bir-bir bosib kelayotgan Muqaddasni ko'rib qoldim... U ham meni ko'rdi-yu, yurishdan to'xtab, chiqib borishimni kuta boshladi.

Xudda katta bir baxtsizlik ro'y berishini oldindan bilgan odamdek, allaqanday madorsizlanib uchinchi qavatga zo'rg'a chiqdim. Biz qo'l berib ko'rishdik. Muqaddas to'satdan pirpirab ucha boshlagan labini tishlab yerga qaradi.

- Kirdingizmi? Nima deyishdi? - deb so'radim sekin.

Muqaddas javob bermadi, u faqat ko'zlarini yerdan uzib asta yuzimga qaradi, uning uzun egilgan kipriklari orasidan yumalab chiqqan ikki tomchi ko'z yoshini ko'rdim. Bu tomchilar bir-birini quvib, yuzidan yumalab tushdi-da, labining chetidagi chuqurchaga singib ketdi...

So'ngra bir-birini quvgan yosh tomchilari ko'payib ketdi...

- Qo'ying, - dedim uning qo'lini qo'yib yubormasdan, - bu yerda bir xato o'tganga o'xshaydi. Meni qabul qilganda, sizni qabul qilmaydilar mi?

Muqaddas yosh to'la ko'zlari bilan menga "yalt" etib qaradi:

Ko'nglimdagi hayajonli taraddud kutilmaganda qat'iy jur'atga aylandi. Yo'lakning oxirida, dekanatning eshigi oldida, bir-ikkita yaxshi kiyingan ayollar turar, chetrokda hassa ushlagan bir chol o'tirardi. Biz borishimiz bilan boshiga shlyapa kiygan yum-yumaloq bir xotin qo'lida o'ynab turgan hashamatli xitoy zontigi bilan oldimni to'sdi.

- Siz dekanagami, yaxshi yigit! Biz ham...

Men uning zontigini jahl bilan itarib tashladim.

- Biz sizga o'xshab bu yerga tilanchilik qilib kelganimiz yo'q! Yuring, Muqaddas!
Ayol buni sira kutmagan bo'lsa kerak, shoshib bir qadam orqaga chekindi, og'zi ochilganicha baqrayib qoldi. Men ichkariga kirib eshikni yopayotganimda ayollardan birining:

- Hozirgi yoshlarimizdan har narsani kutsa bo'ladi! - deb po'ng'illagani qulog'imga chalindi.
Dekanning qabulxonasida odam g'uj-g'uj edi. Ikki joyda ikkita yozuv mashinasi taqirlar, kimdir telefonda qichqirib gapirar, vajohatlaridan domlarga o'xshagan besh-oltita salobatli kishilar nima to'g'risidadir qizg'in bahslashardilar. Lekin bu odamlarning hech qaysisi bizga qayrilib ham qaramadi, faqat "dekan" deb yozib qo'yilgan va qora charm bilan qoplangan salobatli eshikning o'ng tomonida o'tirgan sochlari oppoq kampir bizga qarab birdan o'shqirib berdi:

- Nimaga ruxsat so'ramasdan kirdilaring? Dekan band!
Bir daqiqa o'zimni yo'qotib, dovdirab qoldim, lekin ko'zim Muqaddasga tushdi-yu (u lablari titrab, yonimda turardi), darrov so'z topdim:

- Hech kim ruxsatsiz kirgani yo'q! O'shqirishdan oldin so'rang bundoq! Bizni direktor yubordi!
- Nimaga kelganlaringni so'ramasdan bilib turibman! - deb po'ng'illadi kampir.
- Bilasizmi, yo'qmi, ammo bizni direktorning o'zi yubordi! - dedim qat'iy.
Kampir jahl bilan stoldagi qog'ozlarni titkilay boshladi.
- Dekan yo'q. Muovini qabul qilaman desa marhamat! Men bilmayman! O'zidan so'ranglar!
Eshikni kuch bilan yulqib ochdim. Ko'nglimdan: "nima bo'lsa bo'lar!" degan fikr o'tdi.
- Mumkinmi?
Javobni eshitmasdan o'chkariga oldik. Lekin ichkariga kirib, ensizgina uzun xonaning to'rida, qora movut yopilgan stolning yonida yoshgina bir juvon bilan kulishib, gaplashib turgan o'rta bo'yli olifta kiyingan yigitni ko'rishim bilan yuragimdagi bor-yo'q jur'at va qat'iyat xuddi suv purkalgan alangadek o'chdi-qoldi. Bu olifta yigit o'sha Muqaddas ikkimizni doim kuzatib yurgan, bir necha marta Muqaddasga so'z otib, tanishishga harakat qilib ko'rgan yosh olim Po'lat Azizov edi!... U bizga bir qarab qo'ydi-yu, sochlarini kalta qilib qirqtirgan yosh juvonga qo'lini cho'zdi.

- Bizlarni unutib yubormasdan kelib turing, Gulchehraxon! - dedi u va go'yo shunday chiroyli juvon bilan yaqin munosabatda ekanini bizga ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lgandek, jo'rttaga qo'lini qo'yib yubormasdan:
- Demak... shu qarorga keldikmi? - deb so'radi. Juvon kalta, quyuq sochlarini silkitib kuldi:
- Yaxshi yigit kelib turing demaydi, vaqt-soatini va uchrashadigan joyini aniqroq aytadi.
- Obbo! siz-e! - dedi qizarib Po'lat Azizov, lekin juvon "Xo'sh, bopladimmi?" degan ma'noda qo'llarini siltab qiyshanglab kuldi va eshikka tomon yurdi.
Yer tagidan Muqaddasga bir qarab oldim. U boshini quyi solib, tirnoqlariga tikilib turardi. Uzun-uzun egilgan kipriklari go'yo titrayotgandek piriqirib uchar, lovillab yongan uzunchoq yuzi, butun qiyofasi dilidagi pushaymon, uyat va haqorat hislarini xuddi ko'z gudek aks ettirib turardi. Men ham ichkariga kirib Azizovni ko'rgan zahotimoq bu yerga kelib yana bir xato qilganimizni tushungan edim. Lekin eng yomoni shunda ediki, endi chiqib ketib bo'lmas edi.
Juvon eshikni yopishi bilan Azizov o'zini chetlari qirilgan katta yumshoq kresloga tashlab:
- Xo'sh, eshitaman? - dedi va go'yo bizga qarashdan uyalgandek stoldagi qog'ozlarni titkilashga kirishdi.
Bir necha sekundga cho'zilgan, lekin menga juda uzoq tuyulgan jimlikdan keyin o'zimni zo'rg'a bosib maqsadimizni tushuntira boshladim. Muqaddasning ismini tilga olishim bilan Azizov so'zimni bo'ldi:
- Konkursdan o'tmagan sizmi, yo Muqaddasxonmi? Birdan yuragimdan zo'r bir to'lqin qaynab chiqdi-yu, butun vujudimni lovillatib yubordi.
- Muqaddasxon, - dedim sekin.
- Ie! Bo'lmasa Muqaddasxonning o'zlari gapirsinar-da, siz nima qilib bu ishga aralashib yuribsiz?
Uning ko'zlari birdan yaltirab ketganini ko'rib qoldim. Umrimda hech qachon o'zimni bunchalik ojiz va ayanchli his etmagan edim. U ko'z oldimda go'yo o'sib, ulg'ayib, olijanob bir odamga aylanib borar, men esam, aksincha; allaqanday kichrayib, yerga kirib borardim. Hozir bu odam meni istagancha haqorat qilishi mumkin ekanini, men esam unga javob qaytara olmasligimni sezardim, a'zoyi badanimdan sovuq ter chiqa boshlagan edi.
- Xo'sh, nega indamaysiz, gapiring! - dedi Azizov, keyin ko'zlarini stoldagi qog'ozlardan uzib, yuzimga tikildi. Nima deb javob berishimni o'ylab ulgurmagan ham edimki, Muqaddas to'satdan, boshini keskin silkitdi:
- Yuring, Sharif aka, ketaylik! - dedi u sekin, lekin allaqanday titroq ovozda. O'zi ham go'yo osmonga parvoz qilishga hozirlangan chiroyli va mag'rur qushga o'xshab turardi, boshini sal orqaga tashlagan, oq shoyi ko'ylagini turtib chiqqan chiroyli ko'kragi tez-tez ko'tarilib tushar, hayajondan gul-gul yongan yuzi, Azizovga qadalgan katta-katta chiroyli ko'zlari qandaydir olijanob nafratga to'la edi. Muqaddas bir nafas shu vaziyatda Azizovga tikilib turdi, so'ngra menga yuzlandi:
- Yuring, ketaylik! - takrorladi u, bir qadam bosdi ham, lekin xuddi shu payt Azizov ikki qo'lini kresloning ikki tomoniga shartta qo'yib, kutilmagan bir chaqqonlik bilan o'rnidan sakrab turdi.
- To'xtang, Muqaddasxon, har qalay haqiqatni bilib ketganingiz ma'qul! - dedi u past, qandaydir bo'g'iq ovoz bilan. So'ngra stolni tez aylanib o'tdi-da, xuddi qulab ketishidan qo'rqqandek, qo'llarini orqaga cho'zib, uning chetlarini ushlab oldi. Uning harakatlari keskin, o'zi ham titrab-qaqshab turardi. Biroq meni uning gapi, harakatlardan ham ko'ra ovozdagi chuqur titroq seskantirib yuborgan edi. Bu titroq qandaydir bir dardga, nidoga, alamga to'la edi. Buni Muqaddas ham sezdimi; yo Azizovning harakatlardagi kutilmagan keskinlik ta'sir etdimi, bilmadim, ishqilib, ikki qadam bosmasdan to'xtadi, go'yo chaqqonlik chaqqonlik kutgan odamdek, turgan joyida qotib qoldi.
Bu "haqiqat" nimadan iborat ekanini hali aniq bilmasam ham, hozir dahshatli bir narsa ro'y berishini seza boshlaganimdan, men ham serryayib qoldim.
- Siz necha bal oldingiz? - dedi Azizov Muqaddasga yer ostidan tikilib.
Bir necha sekund cho'zilgan jimlikdan so'ng:
- O'n sakkiz, - dedi Muqaddas sekin.
- Yaxshi, - dedi Azizov, - lekin siz o'n sakkiz bal bilan kirolmagan holda bu chiroyli yigitcha o'n olti bal bilan qanday qilib kirganini bir o'ylab ko'rdingizmi, - dedi u va bir zum javob kutib turgach:
- Bu yigitcha sizning o'rningizga kirganini bilasizmi? - deb so'radi. - Bu yigitcha ishini to'g'rilamaganda siz bunaqa xafa bo'lib, yig'lab yurmasdingiz, bildingizmi?..

Ko'nglimning bir chetida boyadan beri xuddi shu savolni kutib turgan bo'lsam ham qattiq seskanib ketdim, "yalt" etib Muqaddasga qaradim. U ham menga qaradi. Allaqanday qo'rqib, nimadandir cho'chib qaradi. Iztirob cho'kkan katta qora ko'zlari go'yo yordam so'rayotgandek jovdirab, miltirab turar; qoshlari alamli chimirilgan edi. Bu ko'zlar mendan Azizov aytgan dahshatli haqiqatni inkor etishimni so'rar, yalinib-yolvorar edi. Men esam... men esam jonimdan, hayotimdan ham ortiq ko'rgan sevgilimning chehrasida aks etib turgan bu iztirobiga, bu nidosiz savoliga nima ham derdim? Sekin boshimni egdim...

- Afsuski, men buni shu bugun, hozir bilib qoldim. Buyruq chiqqandan keyin bilib qoldim! - dedi Azizov va; yana boyagidek uning ovoqidagi alamli titroq etimni junjiktirib yubordi. - Surishtirib bilsam, bu yigitcha inshosini to'g'rilatib olgan ekan... Siz xafa bo'lmang, Muqaddasxon, men haliyam bo'lsa harakat qilib ko'raman. Lekin meni bir narsa taajjubga solyapti: bu yigitcha o'rningizga joylashib olib, tag'in nimaga sizga mehribonchilik qilib yuribdi?..

Men unga bir nima deyishim, bir javob qilishim kerak edi. Buni o'zim ham sezardim. Lekin nima deyman? Men g'arazgo'y deb, mansabidan foydalanib, Muqaddasning boshini aylantirmoqchi bo'layotgan bir firibgar deb yurganim bu odam, aslida mening o'zimdan yaxshi, sof va olijanob bo'lib chiqsa nima ham qilardim, nima ham derdim? Men faqat bir narsani - boshim bilan qorong'i, tubsiz jarlikka qulayotganimni his etardim, xolos.

Kimdir sekin ingrab yuborgandek bo'ldi.

Zo'r kuch bilan boshimni ko'tardim, ko'zim Muqaddasning jiqqa yoshga to'lgan katta-katta ko'zlariga tushdi. U aftidan, ho'ngrab yig'lab yubormaslik uchun lablarini qattiq tishlab olgan, ko'z yoshlari esa, xuddi mening qarashimni kutib turgandek; bir-birini quvib yumalab tusha boshladi.

Men esam unga tikilib turardim, butun vujudim bilan iztirob chekardim, lekin uni yupatishdan, unga tasalli berishdan ojiz edim, ajabo: men uning ko'nglini olishga haqim yo'q edi!..

Azizov bir qadam oldinga yurdi.

- Yig'lamang, Muqaddasxon, haliyam harakat qilib ko'ramiz; - dedi u. - Hali vaqt bor...

Lekin Muqaddas uning gapiga quloq solmasdan teskari burildi.

- Qo'ying! Keragi yo'q! - dedi Muqaddas sekin, - keragi yo'q! - u ko'zlarini qo'llari bilan quyoshdan to'sgandek to'sib, eshikka tomon yurdi.

Men uni to'xtatmadim, to'xtatishga jur'at etmadim, lekin Muqaddas chiqib ketgach, to'satdan ro'y bergan hodisaning butun dahshatini tushunib Azizovga yuzlandim:

- Insofsiz! - dedim ko'z yoshimni yutinib. Faqat shu bir so'zni aytib chiqib ketmoqchi edim, biroq Azizov qo'limni shap ushladi-da, yulqib to'xtadi:

- Insofsiz kim? Senmi yo menmi? - dedi u ko'zlarini nafrat bilan chaqnatib. - Insofsiz deb seni aytadilar! Tushundingmi?

Nima deyishimni bilmay lol bo'lib qoldim, chunki u haq edi! Qo'limni uning qo'lidan yulqib chiqarib oldim-u, tashqariga otildim...

Muqaddas bilan ikkimizning o'rtamizda paydo bo'lgan ko'priq qulab tushganiga, endi bu ko'priqni tiklab bo'lmasligiga aqlim yetardi, albatta, biroq shunga qaramasdan haliyam bo'lsa u bilan gaplashishni, bo'lgan voqeani unga tushuntirishni istardim, aftidan, bo'lib o'tgan ishning butun dahshatini haliyam anglab yetmagan edim. Menga bu ish haliyam bo'lsa bir anglashilmovchilik bo'lib ko'rinardi, chunki shuni yaxshi bilardimki, agar Muqaddasning o'rniga kirishimni sezganimda hech qachon bu ishga rozilik bermagan bo'lardim!..

Qabulxonada o'tirganlarni hayratda qoldirib ichkaridan jinnilarcha yugurib chiqqanimda, Muqaddas tor va yarim qorong'i yo'lakning oxiridagi zinapoyaga yaqinlashib qolgan edi. U oyoq tovushlarimni eshitib o'girilib qaradi-da, qadamlarini yana ham tezlashtirdi.

- Muqaddas! - deb chaqirdim, yo'lakdagilarning taajjub bilan baqrayib qolganlariga e'tibor ham bermasdan. - Muqaddas, to'xtang! Muqaddas to'xtamadi, lekin zinadan pastga tushmasdan nari ketdi va yo'lakning eng oxiridagi katta derazaning oldiga borib to'xtadi. Tez yurib uning yoniga bordim.

U xuddi bir narsadan arazlagan odamdek teskari o'tirilib, uzun qo'ng'ir sochlarining uchlarini barmoqlariga o'rab turardi.

- Muqaddas, - dedim, - Muqaddas, menga bir qarang, men...

Muqaddas vaziyatni o'zgartirmasdan:

- Domlaning aytganlari rostmi? - deb so'radi.

- Muqaddas, - dedim yolvorib, - menga bir qarang...

- Rostmi deyapman? - takrorladi Muqaddas. To'satdan tomog'imga bir narsa tiqilgandek bo'lib bir nafas jim qoldim.

- Rost, Muqaddas, lekin gapimga ishonib, men bu narsa sizning o'qishga kirolmay qolishingizga sabab bo'ladi deb sira o'ylamagan edim. Bo'lmasa... nahotki, men sizni... Axir men...

Muqaddas shart burilib yuzimga tikildi. Hech qachon uning chehrasida bunday ifodani ko'rmagan edim: qop-qora ko'zlari chaqrab tag'in ham chiroyli ko'rinar, yuzi lovillab yonar, nam lablari pipirab uchradi.

- Sening kirolmasligingga sabab bo'laman, deb o'ylamagandim deysiz, mendan boshqa bir kishining o'rniga kirganingizda-chi, unda nima bo'lardi? - dedi Muqaddas, dedi-yu, ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldi. - Men ahmoq bo'lsam... sizga shunday ishongan, shunday ishongan edimki!

U teskari o'girildi-da, kaflari bilan yuzini bosib sekin yig'lay boshladi...

Yana boyagidek miyamda go'yo bir narsa "yalt" etib yondi-yu, nazarimda zo'r bir haqiqatni to'sib turgan pardaning cheti ko'tarilgandek tuyuldi. Buni juda aniq his etdim, lekin... lekin men masalaning bu tomonini o'ylamaganim ham rost-ku axir! Men katta bir adolatsizlik va insofsizlik qilib qo'yganimni bo'ynimga olaman, ammo, birinchidan, buning oqibatini yaxshi o'ylamagan bo'lsam, ikkinchidan, meni bunga majbur etgan narsa... Muqaddas edi-ku, sevgimiz edi-ku!

- Muqaddas, - dedim ko'zlarini uchratishga harakat qilib; - mening ham gapimga bir quloq soling. Men yomon, razil ish qilib qo'yganimni bo'ynimga olaman. Lekin men buni bilmasdan qildim. Endi men o'zim tuzataman, o'zim harakat qilaman...

- Rahmat. - Muqaddas ro'molchasi bilan ko'zlarini artirdi; - Rahmat, men endi o'qib bo'ldim!

- Muqaddas?..

- Men endi o'qimayman! - dedi Muqaddas, - nahot siz meni bu yerga mehnatdan qochib kelgan deb o'ylasangiz? Men ishchining qiziman! Men shunchalik sizga... sizni, - u gapining oxirini aytmadi, yosh to'la ko'zlari bilan yuzimga yana bir qaradi-da, zinapoyaga tomon burilib ketdi.

- Muqaddas! - dedim uni to'xtatishga harakat qilib. - Muqaddas.

- Qo'ying, bo'ldi! Orqamdan yurmang! Shuncha bergan yordamingiz ham yetadi! - dedi Muqaddas va yig'laganicha zinapoyadan

yugurib tushib ketdi... Ikkinchi qavatga buriladigan joyda shamolda uchgandek mayin to'lg'angan ikki o'rim sochlari tag'in bir ko'rindi-yu, g'oyib bo'ldi...

- "Qo'ying! Bo'ldi! Shuncha bergan yordamingiz ham yetadi!" - Uning yig'lab aytgan bu so'zlarida allaqanday bir dard, muhabbat dardi bor edi, lekin ayni mahalda bu uning "umidingni uz" ham degani, "tamom" degani, "bitdi" degani edi...

Nazarimda shu topda kimdir menga qon va jon berib turgan hayot manbasini shartta kesib tashlagandek edi: xayolimga hech bir fikr kelmas, go'yo miyam ham; qalbm ham bo'm-bo'sh edi. Hatto hozir men uchun naqadar katta fojia ro'y bergani ham ongimga borib yetmagan, qaerda va nima uchun turganimni ham yaxshi bilmas edim, faqat yuragimning bir cheti qattiq og'rir, xuddi zaharli tikan qadalib turganga o'xshardi.

To'satdan turgan joyimdan pastda, ko'chaning narigi yuzida Muqaddasni ko'rib qoldim. U hamon ro'molchasi bilan ko'zlarini tez-tez artib bir-bir qadam tashlab borar, xuddi notanish shaharda adashib ketib, qayoqqa borishini bilmay qolgan bir bechoraga o'xshardi.

Uni ko'rishim bilan xayolimga:

- Bu yerda nima qilib turibman? - degan fikr keldi. - Bu dahshatli xatoni tuzatish uchun bir harakat qilib ko'rishim kerakmi, yo Muqaddas aytmoqchi hech narsani bilmagandek bo'lib, uning o'rniga kirib olib o'qib ketaveramanmi?

Yo'q, men endi o'qimasligimga, o'qiyman desam ham o'qiy olmasligimga aqlim yetib turardi. Demak ro'y bergan adolatsizlikni to'g'rilashim kerak, to'g'rilab Muqaddasga aytishim kerak, keyin u o'qiydimi-yo'qmi, o'zi biladi, ammo adolatni tiklash mening vazifam, mening vijdon burchim!..

Pastga qarab yugurdim. Ikkinchi qavatda rektorning kabinetini oddida turgan boyagi odamlar yo'q, yo'lak ham bo'shab qolgan edi. Katta, qo'sh derazali yorug' qabulxonaning to'rida o'tirib, mashinka chiqillatayotgan yosh qiz mening "direktor bormi?" degan savolimga yuzimga ham qaramasdan:

- Ko'zingizning oldida chiqib ketdi-ku, ko'rmadingizmi? - deb javob berdi.

Unga boshqa savol berib turmasdan yana pastga otildim. Direktorni tanimas edim, yo'lakda va birinchi qavatda uchragan odamlar men tasavvur etgan direktorlik salobati bo'lmaganligi uchun, ularga murojaat ham qilib turmasdan ko'chaga chiqdim.

Tashqarida eshikning ro'parasida, akatsiyaning soyasida turgan "Pobeda"ning yonida ikki kishi xayrlashmoqda, ikkalasi ham yaxshi kiyingan, qorin sola boshlagan salobatli odamlar edi. Eshikdan yugurib chiqqanimda ularning biri - papka qo'ltiq olgan, sochlariga oq oralagan, o'rta bo'yli; oq shoyi kitelli odam "Pobeda"ning eshigini ocha boshladi. Mashinaning yurib ketishidan qo'rqib chopib bordim:

- Institut direktori siz bo'lasizmi? - dedim hansirab.

Mashinaning eshigiga qo'l cho'zgan odam bunday odobsizlikni kutmagan uchunmi, yo men judayam hovliqib ketgan ekanmanmi, yuzimga taajjub bilan tikilib:

- Men bo'laman, xo'sh? - deb so'radi.

- Sizga juda zarur bir gapim bor edi.

- Shunaqami? Ertaga kelsangiz qanaqa bo'larkin,- dedi u kulimsirab.

- Kechirasiz, ertaga qoldirib bo'ladigan ish emas!- dedim, uning yana mashinaga o'tirmoqchi bo'layotganini ko'rib, beixtiyor qo'limni cho'zdim.

Direktor menga yana diqqat bilan qarab qo'ydi. Sal qisilgan ko'zlarida yana taajjub ifodasi jilvalandi.

U keskin harakat bilan yengini ko'tarib qo'l soatiga tez ko'z tashladi va labini tishlab boshini chayqadi:

- Kechirasiz, uka. Sira ilojim yo'q. Kechkiyapman. Bir zarur ish bilan chaqirishgan edi, yetib bormasam bo'lmaydi! - dedi va yuzimga yana bir ko'z tashlab, qo'shimcha qildi:

- Ertaga ertaroq keling. Birinchi navbatda qabul qilaman.

Uning keskin harakat bilan "Pobeda"ning eshigini ochganini ko'rib, yana to'xtatmoqchi bo'lgandim, direktor bilan xayrlashib turgan odam "shap" etib qo'limdan ushladi:

- Menga qarang, yaxshi yigit, odobsizlik ham evi bilan-da! Siz kim bo'lasiz o'zi?

Direktor mashinadan boshini chiqarib menga yuzlandi:

- To'g'ri, to'g'ri, arzingizni bu kishiga aytasangiz ham bo'ladi... mumkin bo'lsa yordam bering... - dedi u va shofyorga qarab imo qildi: "hayda!"

- Menga qarang, - dedi direktorning sherigi, - men sizni bir yerda ko'rgandek bo'layotibman. Siz... Salim Karimovichning o'g'li emasizmi?..

Ko'chani to'ldirgan "Zim" va "Pobeda"larga aralashib muyulishdan burulib ketayotgan direktorning mashinasi orqasidan tikilganimcha qotib qoldim, eng so'nggi umidim ham puchga chiqqani meni og'ir o'yga toldirgan edi.

Yonimdagi odam qo'limdan ushladi:

- Sizga nima bo'ldi, yigitcha? Sizning masalangiz hal bo'luvdi shekilli. Tag'in nima qilib yuribsiz?

Keskin burilib qaragan edim, u kishini tanir ekanman.

Bu o'sha, insho yozdirgan oltin ko'zoynakli chiroyli mo'ysafid domla edi!

- Ha, mening masalam hal bo'ldi! - dedim uning silliq qirilgan qip-qizil yumaloq yuziga, oltin ko'zoynagi tagida chaqnab turgan chag'ir ko'zlariga g'azab bilan tikilib. - Ammo men masalani hal qilgan odamlar bilan gaplashmoqchi bo'lib kelgandim! Men ularni fosh qilgani keldim! Fosh qilaman! Endi tushudingizmi maqsadimga?..

Domlaning yumaloq yuzi g'alati cho'zshshb, ko'zlarida: "Bu jinnimi o'zi" degan ifoda jilvalanardi. U yelkasini bir qisib qo'ydi-da, xuddi uni shu topning o'zidayoq fosh qiladigan joyga sudrab ketishimdan qo'rqandek, jadallab institutga kirib ketdi.

Yana boyagidek xiyla vaqtgacha nima qilishimni bilmasdan turib qoldim: xayolimga tuzukroq bir fikr kelmas, hushimni yig'ib ololmas edim. Nihoyat anchadan keyin miyamga:

"Direktor, ertaga kelasani dedi-ku, ungacha Muqaddas ketib qolmasin!" degan fikr keldi.

Muqaddasning ketib qolishidan qo'rqib muyulishgacha shoshib, jadillab bordim, lekin muyulishdan o'tib, keksa qayrag'ochlar soya tashlagan tanish ikki qavatli uyni ko'rishim bilan qadamim o'z-o'zidan sekinlashib qoldi.

...So'nggi bir oy ichida bu ko'rimsizgina bino men uchun dunyoda eng ko'rkam, eng ziynatli, eng orombaxsh bir joyga aylangan edi. Men uning oldidan yuragimni hovuchlab, Muqaddasim, sevgilim yashagan ikkinchi qavatdagi balkonli xonadan, xonaning derazalariga tutilgan harir to'r pardasidan ko'zlarimni uzolmasdan, uni ko'rmasam ham har safar qalbm nafis va totli tuyg'ularga to'lib o'tardim. Men uni necha marta quvonchdan boshim arsh-a'luga yetib shu uyga kuzatib qo'ygan, necha marta uni

ko'rolmasdan iztirob chekkan edim, lekin hech qachon uning oldiga hozirgidek qo'rqib, yuragimni to'ldirgan qorong'i va og'ir hislardan ko'nglim g'ash bo'lib boraman deb o'ylamagandim.

Hamisha odam ko'p bo'ladigan yotoqxonaning oldida baxtga qarshi bu safar hech kim yo'q edi. Bir-ikki minut sadaning tagida bitta-yarimta tanish-bilish chiqib qolishini kutib turdim, so'ngra sekin eshikka bordim.

Yo'lakda, issiq suv to'ldirilgan katta bakning yonida ko'zoynak taqqan bir kampir paypoq to'qib o'tirardi.

Muqaddasni chaqirib berishini iltimos qilgandim, boshini chayqab uflab oldi.

- Sira tinchlik bermadilaring-bermadilaringda!- dedi-da, o'ng qo'li bilan belini ushlagancha ikkinchi qavatga chiqib ketdi.

Tashqariga qaytib chiqib ariq bo'yidagi sadaning soyasida kuta boshladim. Yuragim tez-tez urar, xayolimda faqat bitta fikr aylanardi: "Bormi, yo'qmi, chiqadimi, chiqmaydimi?"

Boya hech kim bo'lmagan yotoqxonaning oldida, endi go'yo meni kutib turgandek, qiz-yigitlar to'plana boshladi. Nazarimda ular hadeb menga qarayotgandek, naqadar xunuk ish qilib qo'yganimni bilib, mendan nafratlanishayotgandek tuyulardi.

To'satdan tepamdagi balkonning eshigi ochilgandek bo'ldi. Men tez qaradim va balkonda turgan Muqaddasni ko'rdim.

U boyagi shoyi ko'ylagi o'rniga oddiy chit ko'ylak kiygan, sochlarini orqasiga turmaklab olgan, aftidan, ketishga ahd qilgani chin edi. Ko'zlarimiz bir sekundga uchrashdi. Uning ko'zlari yana jiqqa yoshga to'ldimi, yo menga shunday tuyuldimi, bilmadim, u boshini quyi solib indamasdan yana ichkariga kirib ketdi...

Birpasdan keyin eshikda imtihon topshirib yurgan kezlarimizda bir-ikki ko'zim tushgan o'sha yuzida qora xoli bor qiz ko'rindi. U sekin yurib yonimga keldi-da, go'yo meni endi ko'rayotgandek yuzimga qadolib, to'rt buklangan bir parcha qog'ozni cho'zdi:

- Muqaddasxon chiqmayman dedilar... - Shunday dedi-yu javobimni kutmasdanoq yotoqxonaga kirib ketdi. Men ham soyadan chiqib boshim oqqan tomonga qarab ketdim.

Muqaddasning javobi taxminan qanaqa bo'lishini sezsam ham, ko'nglimning bir chetida hanuz so'nmagan bir umid miltirab turardi.

To'rt buklangan qog'ozni ochdim. "Sharif aka! Menga ko'p yaxshiliklar qildingiz. Bu yaxshiliklaringiz uchun rahmat. Biroq endi o'zingizni qiynamang. Hozir mening institutga qabul qilinishim to'g'risida buyruq olib kelgan bo'lsangiz ham men qolmas edim.

Gapimga ishoning: endi bir-ikki yil ishlamasdan sira o'qimayman. Bu bir oy menga katta saboq bo'ldi. Aqlim kirdi. Nihoyat shuni ham tushundimki, oldin ishlab keyin o'qish faqat mehnatni hurmat qilish va chiniqish uchungina emas, odam tanish uchun ham zarur ekan. Agar bilsangiz... Men sizga shunday ishongandim, shunday ishongandimki!..

Xayr. Muqaddas".

- "Bu qandoq bo'ldi? Men nimalar qilib qo'ydim? Qanday qilib o'zimga o'zim pichoq urdim? Qanday qilib o'z baxtimdan o'zim ayrildim?"

Birinchi daqiqada bu savollar yuragimda tutab turgan iztirobni birdan loyillatib yubordi-da, xayolimda boshqa aybdorlarni qidirishga kirishdim.

Shu topda bu narsada o'zimni emas, oyim bilan Salim Karimovichni ayblashga, hamma gunohni o'sha ikkisiga to'nkashga tayyor edim.

Lekin ajabo: men ularni ayblashga haqim bormi? Ularga bir narsa deyishga tilim boradimi? Men o'zim emasmi tunov kuni bu ishga rozilik bergan? O'shanda rozilik bermaganimda, irodasizlik qilmaganimda ular meni majbur qila olisharmidi?"

Achchiq alam bilan iqror bo'ldim: yo'q!..

Mening hech kimni ayblashga haqim yo'q edi. Hammasiga yolg'iz o'zim aybdor edim. Bu narsaga o'z insofsizligim, sabrsizligim, irodasizligim sabab bo'ldi! Bo'lmasa bir yil ishlab shuncha hurmat orttirgan, hunar o'rgangan zavodni shunday tashlab ketarmidim?

U yerda orttirgan shuncha do'stlarimdan shunday osongina yuz o'girarmidim? Men tengi yigitlar ham ishlab, ham o'qib, qiyinchiliklar bilan olishib, ular ustidan g'alaba qozonib yurgan bir paytda, men sevgilimning joyini tortib olib bunday sharmanda bo'lib qolarmidim?..

Ha, endi aqlim kirgan, endi hamma narsaga tushungan edim. Muhabbat - muqaddas tuyg'u. U soflikni talab etadi. Muqaddas mening o'zimni ham, sevgimni ham tark etib, ko'zimni ochgan edi. Xalqning "Insofli odam oshini yer; insofsiz boshini" degan maqolida mujassamlangan hayotning eng ulug' qonunlaridan biri menga o'zining shafqatsiz, lekin adolatli kuchini ko'rsatgan edi.

* * *

Chirmovuyq soyabon tagida qancha o'tirganimni o'zim ham bilmayman. Parkni to'ldira boshlagan odamlarning g'ovur-g'uvurlaridan o'zimga kelganimda quyosh g'arbiga yonboshlagan boya men kirganda issiqdan qaqrab yotgan xiyobonlarga daraxtlarning quyuyq soyasi tushgan edi.

Park jonlanmoqda, hayot o'z iziga tushmoqda edi. Yuragimdagi g'am-g'ussa naqadar og'ir bo'lmasin, men ham yashashim, kun kechirishim, hayotni davom ettirishim kerak edi, o'rnimdan turib soyabon tagidan chiqdim...

Endi nima qilishimni, bundan keyin qaysi yo'ldan ketishimni hali o'zim ham yaxshi tasavvur etmas edim. Faqat bir narsani yaxshi bilardim - bu yil qaytib institutga qadam bosmayman!

Parkdan chiqqach: qayoqqa borishimni o'ylab bir zum turib qoldim. Negadir uyga oyog'im tortmas edi.

Shunday paytlarda hammada ham bo'ladigandek, men ham ko'nglimdagi dardimni do'stimga, ko'nglimga yaqin bir odamga aytgim, hasratlashgim, o'rtoqlashgim kelardi.

Lekin kimga boraman? Kimga aytaman?

Yo'q, men Sulaymon Akramovichni ham, To'laganni ham, bir yilda zavodda orttirgan boshqa do'stlarimni ham unutmagan edim, ularning hammasi esimda turardi, hatto Sulaymon Akramovichning bir hafta oldin aytgan so'zlari ham yodimda edi, lekin ularning oldiga endi qaysi yuz bilan boraman, nima deyman?

Rost, ko'nglimning bir chetida agar samimiy kechirim so'rab borsam ular ko'kragimdan itarmasliklariga ishonardim, lekin jur'atsizlikdanmi yo yigitlik izzat-nafsi yo'l qo'ymadimi, ishqilib zavodga bormasdan, uyga qarab yo'l oldim. Ehtimol uyda institut bilan zavodga olib boradigan ikkita yo'ldan boshqa uchinchi bir yo'l topilib qolar!

Shu xayol bilan uyga ketdim, lekin ajabo: xayolim do'stlarimda, zavodda edi. Men qandaydir ularni qo'msar edim. Qani endi shu topda To'lagan bilan odam siyrak ko'chalarni kezib, ko'nglimdagilarni unga gapirib bersam, bir oy ichida to'plangan hasratlarimni to'kib yuragimni bo'shatsam?..

Darvozadan hovliga kirdim-u, hayron bo'lib to'xtadim, ro'paradagi supada siyrak sochlarini changallab Salim Karimovich o'tirar, yonida qo'lida bir piyola suv tutib oyim turardi.

Men Salim Karimovichning:

This is not registered version of TotalDocConverter

- Sharmanda qilib o'tirganida, degan bo'ldim qoldim.

Darvoza ochilganini eshitib, oyim o'girilib qaradi. Salim Karimovich esa sekin o'rnidan turdi. Uning lablari titrar, ko'rinishi juda ayanchli edi.

- Bu qandoy bo'ldi? - dedi u, qandaydir yig'lamsiragan, titroq tovush bilan. - Sen kimni fosh etmoqchi bo'lib yuribsan? Men seni o'g'lim deb, jigarbandim deb o'rtoqlarga yelib-yugurib ishingni to'g'rilab bersam-u, sen bunaqa qilsang? Meni o'rtoqlarim oldida qay ahvolga solib qo'yganingni bilasanmi o'zing? Sharmanda qilding, sharmanda!

Shu topda mening ham dardim o'zimga yetarli bo'lib turgani uchunmi, bilmadim, qattiq bir narsa deyishga og'iz juftladim-u, lekin uning yig'lashdan beri bo'lib turganini ko'rib hushimga keldim: unga qattiq gapirishga nima haqim bor? Axir ayb unda emas, o'zimda-ku! Bu irodasiz, sho'rlik odam oyimning qistovlari bilan shu ishga majbur bo'lganini ko'ra-bila turib indamagan edim-ku! Dadamni ayblash ham vijdotsizlik bo'ladi-ku!

- Kechirasiz, bolalik qilibman. Direktorga kiraman deb jahll ustida aytgandim. Ko'nglingiz to'q bo'lsin... Hech qachon kirmayman!

- dedim va uyga burildim. To'satdan xayolimdan: "Agar o'z dadam tirik bo'lganda ehtimol bu ishlar bo'lmas edi, ehtimol men bu ahvolga tushmas edim!" degan fikr o'tdi-yu, ko'zimga yosh keldi...

Uyga kirishim bilan orqamdan oyim ham kirdi. U to'ppa-to'g'ri oldimga keldi, ikkala qo'li bilan boshimni ushlab, ko'zlarimga tikildi:

- Senga nima bo'ldi, bolam? Ko'nglingdagi dardingni onangdan nega yashirasan? Nega bunday qilasan.

Yo'q, sochlariga oq oralagan, peshonasiga chuqur ajinlar tushgan bu ona o'z farzandining dardini tushunmaydigan onalardan emas edi! Men bir oy ichida boshimdan o'tgan hodisalarni undan yashirmasam ham bo'lardi!..

Boshimni uning qo'llari orasidan sekin chiqarib yerga qaradim. Ayni mahalda uyga kelayotganimda yo'lda o'ylaganim uchinchi yo'lning yo'qligiga ham amin bo'ldim.

- Men bu yil o'qimayman, - dedim, - yaxshisi zavodga qaytib boraman.

- Nega? - sekin so'radi oyim, uning ovozi juda muloyim edi. - Sir emasmi?

- Yo'q, sir emas, biroq bu to'g'rida hozir aytolmayman. Men sizga faqat shuni aytishim mumkinki; tunov kuni shu ishga rozilik berib juda katta xato qilibman, chunki bir odamga... bir qizga juda javr bo'ldi... Yo'q demasangiz, Sulaymon akaning oldiga boraman.

Oyim uzoq vaqt jim qoldi.

- Mayli, bolam, o'zing bilasan, - dedi nihoyat va yana boshimni ushlab, peshonamdan o'pdi. Uning ko'zlari nam edi:

- Yo'q, bolam, sen emas, men yanglishdim. O'qi deb zo'rlab seni qiynab qo'yganga o'xshayman. Bora qol, bolam, mayli, bora qol.

U yana peshonamdan o'pdi. Uydan chiqib Sulaymon akaning oldiga ketdim.

Xatoni tuzatish uchun hayotni qaytadan boshlash kerak edi.